

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**«TABIIYOT FANLARI» FAKULTETI
«GEOGRAFIYA VA UNI O'QITISH METODIKASI» KAFEDRASI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakultet dekani

E.R.Yuzlikayeva

« ____ » ____ 2014 yil

**5140500-«Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» ta'lim yo'nalishi kunduzgi
bo'lim 401-guruh talabasi**

**Kuralbekov Baxtiyar Abdikadirovichning
“Xitoy iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Geografiya
va uni o'qitish metodikasi»
kafedrası katta o'qituvchisi
_____**I.Islomov**

Ilmiy maslahatchi: «Geografiya
va uni o'qitish metodikasi»
kafedrası dotsenti, g.f.n
_____**N.Safarova**

«Himoyaga tavsiya etilsin»
«Geografiya va uni o'qitish
metodikasi» kafedrası mudiri
_____**g.f.n. dots. N.R.Alimqulov**
« ____ » ____ 2014 yil

TOSHKENT – 2014 yil

Mundarija

Kirish	3.
I.Bob. XXR iqtisodiyotining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.....	5
1.1 XXRning geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari.....	5
1.2 Xitoy Xalq Respublikasi aholisi va mehnat resurslari.....	12
1.3. Tarixiy rivojlanish bosqichlari va ularga xos jarayonlarning iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'siri.....	16
II.Bob. XXR iqtisodiyoti tarmoqlarining hududiy rivojlanishi.....	22
2.1. XXR xo'jaligining asosiy tarmoqlari	22
2.2 XXR iqtisodiy rayonlari.....	30
III. Bob«Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari» mavzusini o'qitish metodikasi	37
3.1 XXR bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi aloqalarning tarixiy rivojlanish xususiyatlari	37
3.2 «XXR iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari» mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	42
Xulosa.....	51
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	52

KIRISH

Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) jahonning eng tez su'ratlar bilan rivojlanib borayotgan davlatlaridan biri. So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan moliyaviy iqtisodiy inqiroz holatida O'zbekiston bilan bir qatorda jahonning kam sonli davlatlari qatorida XXRda ham iqtisodiy o'sish holatlarining kuzatilayotganligi ham yuqoridagi fikrimizning dalili bo'lib hisoblanadi. Ushbu davlat iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlarini o'rganish nafaqat amaliy, balki nazariy ahamiyatga ham ega. Chunki ushbu davlat o'z ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo'lida tanlab olgan modeli jahondagi boshqa taraqqiyot modellardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Davlat iqtisodiyotidagi bunday ijobiy o'zgarishlarning yuzaga kelishi birinchi navbatda mavjud bo'lgan mahalliy tabiiy (mineral, yer, suv, agroiklimiy va b), ijtimoiy (aholisi va mehnat resurslari) omillar bilan bog'liq. Bundan tashqari, XXR hududining qadimiy oykumenalardan biri ekanligi, jahon fan va iqtisodiyot tarmoqlari rivoji uchun ahamiyatli bo'lgan ko'plab kashfiyotlar vatani ekanligi hamda bosib o'tgan har bir tarixiy davrlarda yuz bergan o'zgarishlar ham uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynagan.

O'zbekiston Respublikasi Xitoy Xalq Respublikasi bilan uzoq yillardan buyon teng sherikchilik asosida turli sohalarda mustahkam aloqalar o'rnatgan. Uning o'ziga xos iqtisodiy rivojlanish jarayonlari ko'p bora Prezident I.ASRKarimov tomonidan e'tirof etilgan: "...Turkmanistondan O'zbekiston hududi orqali Xitoyga o'tadigan gaz quvurini tortish ishlari yakunlandi. Bu, o'z navbatida, mamlakatimizning tranzit imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Bundan tashqari, hududlarimizda, avvalo, qurilish materiallari sanoati, oziq-ovqat, yengil sanoat va boshqa tarmoqlarda kichik biznes sohasida faoliyat olib boradigan 480 dan ortiq yangi ishlab korxonalar tashkil etildi..."¹.

¹ I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. 44-b.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: XXR iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish.

Ob’ekti: Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlari.

Predmeti: XXR iqtisodiyoti rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni, ularning tarmoqlarga ta’sir holatini aniqlash hamda iqtisodiyotining hududiy rivojlanish xususiyatlarini o’rganib chiqish.

Vazifalari:

- XXRning geografik o’rni, tabiiy sharoiti va resurslarini o’rganish;
 - Tarixiy rivojlanish bosqichlari va ularga xos jarayonlarning iqtisodiyoti rivojlanishiga ta’sirini tahlil qilish;
 - XXR xo’jaligining asosiy tarmoqlariga tavsif berish;
 - XXR iqtisodiyotining hududiy rivojlanish xususiyatlarini ochib berish;
 - O’zbekiston-Xitoy munosabatlarining rivojlanishining asosiy jihatlarini o’rganish;
- «XXR iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari» mavzusini o’qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati: BMI ma’lumotlaridan 9-sinf “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanining Xitoy Xalq Respublikasi ga bag’ishlangan mavzularini o’tishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ish hajmi: Ishning umumiy hajmi 53 betdan iborat. Unda 7 ta jadval va 1 ta karta-sxema mavjud. Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati 16 manbaadan tashkil topgan. Bundan tashqari, ish so’nggida mavzuga oid – so’zdan iborat inglizcha-o’zbekcha glossariy, qisqacha o’zbek, rus va ingliz tillaridagi annotatsiya mavjud.

I – BOB. XXR IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR.

1.1.XXRning geografik o’rni, tabiiy sharoiti va resurslari.



Xitoy Xalq Respublikasi–Sharqiy Osiyodagi davlat. U maydonining kattaliga ko’ra dunyoda 3- o’rinda turadi (9,5 mln. km²dan ortiq). Maydoni g’arbdan sharqqa 5,7 ming km ga, shimoldan janubga 3,7 ming km masofaga cho’zilgan. Mamlakatning sharqi va janubi-sharqiy qismlari katta masofada okean bilan tutash, lekin mamlakat xududining katta qismi okeandan uzoqdast Yettita provintsiyasi dengizbo’yida joylashgan bo’lib, dengiz chegaralarining umumiy uzunligi 15 ming km.ga yaqin. Shunga qaramay, Yantszi va Xuanxe daryolari bo’ylab daryo kemalarining 2700 km dan ko’proq ichki hududlarga kirib bora olishi natijasida ichki provintsiyalar ham dengizga bevosita chiqa olish imkoniyatiga egasr SHarqiy Xitoy, Janubiy Xitoy va Sariq dengizlar bo’yida joylashganligi davlatning dengiz transportini va baliqchilikni rivojlantirishiga asos bo’la oladi. [7]

Iqtisodiy geografik o’rnining qulayligi Yaponiya va “Osiyo yo’lbarlari” mamlakatlariga yaqinligi, Rossiya bilan chegaradoshligi, shuningdek Xitoy Xalq Respublikasining qadimiy sivilizasiya markazlaridan biri bo’lib kelganligida ham namoyon bo’ladi. Bundan tashqari, Tinch okeanini Yevropa bilan tutashtiruvchi yo’llar aynan Xitoy hududi orqali o’tganligi ham uning iqtisodiy geografik o’rnida ijobiy ahamiyat kasb etadi. Qadimda “Buyuk Ipak yo’li” harakati ikki mintaq

aloqalarida muhim o'rin tutgan bo'lsa, hozirda bir qator Yevropa davlatlari bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan "Traseka" yo'nalishi aynan qadimiy yo'nalishning zamonaviy ko'rinishi bo'ladi. Xitoyning quruqlik chegarasining asosiy qismi baland tog'lar va cho'llar orqali o'tadi.

Xitoy Xalq Respublikasi siyosiy-ma'muriy jihatidan 23 ta provensiya, 5 ta avtonom rayon, markazga bo'ysunuvchi 4 ta shahar (Pekin, Shanxay, Tyantszin, Chuntsin) va 2 ta maxsus ma'muriy rayondan tashkil topgan. 1997 yil Xitoyga qayta qo'shilgan sobiq Britaniya hududi – Syangan (Gonkong) va Portugaliya hududi Aomin' (Makao) maxsus rayonlar sifatida qayd etilgan. Ko'p davrlar davomida yevropaliklarning qo'l ostida bo'lgan mazkur rayonlar iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlariga ko'ra boshqa ma'muriy birliklardan farq qiladi. [15]

Xitoy xududining 80 % ini rel'efi murakkab, ya'ni tog'lar, yassi tog'liklar va tog' oralig'i botiqlaridan iborat, ayniqsa Himolay, Kunlun, Tyanshan, Tibet, Nanshan, Hingan tog'lari egallagan hududlar qishloq xo'jaligi va transport yo'llarini o'tkazish uchun noqulaydir. Mamlakatning sharqiy qismi asosan tekisliklardan iborat bo'lsa, g'arbiy qism tog'li mintaqa hisoblanadi. Buyuk Xitoy tekisligi davlatning eng katta maydonga ega tekislik qismi hisoblanadi. Undan g'arbroqda cho'l va kuchli eroziyaga uchragan hududlar joylashgan. Xitoyning shimoli-g'arbida Jung'or va Qashg'ar botiqlari hamda Takla-Makon cho'li joylashgan. SHimolda esa Gobi cho'li bilan birga Mongol yassi tog'liklari yastanib yotibdi. Davlatning janubi-sharqi ketma-ket joylashgan adir va tekisliklardan iborat bo'lsa, janubi-g'arb Tibet tog'liklaridan tashkil topgan (dengiz sathidan 4 ming m. balandda). Undan shimoliroqda Kun'lun' tizmasi, janubi va g'arbida esa Himolay va Qorakurum tog' tizmalari mavjud.

Xitoy iqlimi shakllanishida uning iqlimi muhim ahamiyatga egasr Xitoyning iqlimiy xususiyatlari uning shimoldan janubga, g'arbdan sharqqa tomon minglab kilometrlab cho'zilganligi orqali namoyon bo'ladi. U aholi va xo'jalik tarmoqlarining joylashuviga, hududining qishloq xo'jaligi maqsadlarida o'zlashtirilishiga ta'sir ko'rsatgan. Xitoy asosan mo''tadil, subtropik va tropik

iqlim mintaqalarida joylashgan. Uning g'arbida kontinental iqlim xukmron bo'lib, asosan haroratning kunlik va yillik amplitudalari oraliq kattaligi bilan ajralib turadi. SHarqda esa, asosan, musson tipidagi iqlim shakllangan bo'lib, yoz faslida katta miqdordagi yomg'ir yog'ishi bilan ajralib turadi. Xitoyning barcha provintsiyalarida yoz fasli doimo issiq bo'lib, qishda shimoliy hududlar sovuq (yanvarning o'rtacha harorati -30°S), o'rta qismida nisbatan sovuq, janubda esa iliq ($+18^{\circ}\text{S}$).

Yozdagi issiq va yomg'irli davrda Xitoy shimoli va janubida harorat farqi yuqori emas. Iyulning o'rtacha harorati shimoli-sharqda (ichki Mongoliyada) $+20+24^{\circ}\text{S}$, Janubiy Xitoy dengizi qirg'oqlarida $+26+28^{\circ}\text{S}$. Mavsumlar davomida havo temperaturasining farqi kattasr Yanvarning o'rtacha harorati Xarbinda — $20,4^{\circ}$, Pekinda — $4,6^{\circ}$, iyulniki xuddi shu joylarda 23° va 26° . G'arb va shimoli g'arbgacha tomon iqlimning kontinentalligi ortib boradi. Yoz issiq (Turfon botig'ida iyulning o'rtacha trasi 34°), qish sovuq. Yanvarning o'rtacha harorati Xitoy shimolida (Xaylar) — 28° , g'arbida (Urumchi) — $14,9^{\circ}$.

Xitoy iqlimining yana bir xususiyati yog'inlar taqsimlanishida katta tafovutning mavjudligida namoyon bo'ladi. Uning natijasida davlatning sharqida musson, g'arbida esa keskin kontinental iqlim shakllangan. Yozgi musson ta'siri natijasida janubi-sharqdan shimoli-g'arbgacha qarab yog'in miqdori kamayib boradi (1200-1400 mm.dan to 1000 mm.gachasr Markaziy va qurg'oqchil rayonlarda bundanda kam). Yillik yog'in Sharqiy Xitoyda 500—2000 mm (ko'p qismi yozda yog'adi). Yillik yogin 250 mm dan kam, Qashqar tekisligi va Saydamda 50 mm dan kam. Tibet tog'ligida qish juda sovuq, yozi esa salqin. Gartokda (Hind daryosining yuqori qismi) yanvarning o'rtacha harorati — $11,8^{\circ}$, iyulniki $11,8^{\circ}$. Haroratning sutka davomidagi farqi kattasr Kuchli shamollar esadi. Xitoyning baland tog'larida muzliklar bor, lekin yog'in kamligidan ularning maydoni katta emas (100 ming km^2 chamasida). [10]

Xitoyning sharqiy qismida chimli podzol, qo'ng'iro'rmon, sariqjigarrang, sariq va har xil qizil tuproqlar, daryo vodiylarida esa allyuvial tuproqlar tarqalgan. Dengiz sohillarida sho'rlangan tuproqlar uchraydi. Xitoyning g'arbiy qismining tuprog'i cho'lga xos kashtan, qo'ng'ir, sur tusli qo'ng'ir tuproqlar, tog' oldi tekisliklari va tog'larda bo'z, tog'kashtan va tog'o'tloq, Tibet tog'ligida esa sovuq cho'lga xos tuproqlar mavjud.

Iqlim sharoiti va tarqalgan tuproq turlari Xitoyda qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvining turlicha bo'lishiga sababchi bo'ladi. Eng serunum tuproqlar mamlakat sharqidagi Buyuk Xitoy tekisligida tarqalgan bo'lib, bu hudud asosiy dehqonchilik markazi hisoblanadi. G'arbda asosan vohalarda, daryo vodiylarida rivojlangan. Mazkur hududlar asosan chorvachilikka ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi. Mavsuslar bo'yicha yog'inlarning notekis taqsimlanishi natijasida Xitoyda asosan sug'orma dehqonchilik rivojlangan. Bu yerda bo'lib turadigan muzlash, changli bo'ron va to'zonlar, daryolar toshishi hamda tayfunlar ekinlar hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqdasr

O'rmon resurslarining asosiy qismi Xitoyning shimoli-sharqi (igna bargli tayga o'rmonlari) va janubi-sharqida (keng bargli tropik va subtropik o'rmonlar) mavjud. Tabiat mintaqalari shimoldan janubga kenglik bo'ylab o'zgara boradi. Tog'larda balandlik mintaqalari shakllangan.

Xitoy suv resurslariga boy (50 mingdan ortiq) bo'lib, hududlar bo'ylab notekis taqsimlangan. SHarqiy qism suv resurslariga boyligi bilan ajralib turadi. Xitoy daryolari ichki havza daryolari bo'lish bilan bir qatorda (TSinxay-Tibet yassi tog'ligi, SHimoliy Xitoy) Tinch, Hind va SHimoliy Muz okeani havzasi daryolari bo'lib hisoblanadi. Mamlakat sharqidagi daryolar sersuv va ularda kema qatnovi yo'lga qo'yilgan. Ular asosan yomg'irlardan to'yinadi. Yiriklari — Yanszi, Xuanxe, Sungari, Chjutszyan. Mekong, Saluin, Braxmaputra daryolarining bir qismi ham Xitoydan oqib o'tadi. Xitoy g'arbida daryolar kamsuvli, ayrimlari yozda qurib qoladi. To'yinish tipiga ko'ra qor-yomg'ir va muzlik daryolari

guruhiga kiradi. Bu mintaqaning tog' va tog'oldi qismi daryolar bilan yaxshi ta'minlangan. Ularning yiriklari — Yorkent, Tarim va Oqsuv. CHo'l va chalacho'l hududlarning daryolari qisqa masofali va kam suvliligi bilan ajralib turadi. Asosan oqmas suv havzalariga suv quyadi yoki qumlarga singib ketadi. Ko'llar soni ko'p, asosiylari — Kukunor, Duntinxu, Poyanxu.

Xitoy daryolari sug'orishda keng foydalaniladi. Ko'pgina daryolari uchun yozgi musson, qor va muzliklar erishi davrida toshqinlar yuz berishi xos. Yantszi Xitoyning eng yirik suv daryo tizimi hisoblanadi. U davlatning 1/5 qismi hududini egallagan holda oqim hajmiga ko'ra Osiyoda birinchi, jahonda esa to'rtinchi o'rinni egallaydi. Yantszi Markaziy Xitoyning nafaqat eng asosiy suv arteriyasi, balki asosiy gidroenergetika manbai bo'lib ham hisoblanadi. Bu yerda Jahondagi eng yirik GES "Uch dara" – "San'sya" GESi barpo etilmoqda.

Xuanxe daryosi Xitoyning muhim ikkinchi daryo tizimi hisoblanadi. U murakkab va shiddatli xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Oqim o'zanining torligi, uning turli loyqa hamda qumlar bilan to'lib qolayotganligi ko'p sonli toshqinlarga, o'z o'zanini doimiy o'zgartirib turishi esa ko'plab hosildor yerlar paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqdasr Xuanxe ham katta miqdordagi gidroenergetik salohiyatga egasr XXR gidroenergetika resurslari hajmiga ko'ra jahonda birinchi o'rinda tursa-da, daryolarning bunday imkoniyatlaridan hozirda to'liq foydalanilmayapti.

Xitoyning sharqiy qismida juda xilma xil (25 mingdan ziyod) o'simlik turi mavjud. U yerda aholi qadimdan zich yashaganligidan o'rmon, asosan, tog'li yerlarda qolgan. Pasttekisliklarning hammasi ekinzor va bog'. Yantszi daryosi quyi oqimidan jan.da doim yashil subtropik, eng jan.da tropik o'rmon va mangra chakalakzorlari mavjud. Xitoyning g'arbiy qismida yuksak o'simliklarning turi 5 mingdan oshadi. Xingan tog'lari etagidagi dashtlarda boshokli o'tlar, Tibet tog'ligidagi cho'llarda o't va butalar o'sadi. Tog' vodiylari subalp o'tloqlari va o'rmonli dashtdan iborat.

Hayvonot dunyosi boy va xilma xil. Umurtqalilarning 3500 turi (shundan 400 turga yaqini sut emizuvchilar) va qushlarning 1000 dan ziyod turi bor. Xitoyning janubi va janubi-gʻarbida tropik mintaqaga xos hayvonlardan har xil maymunlar, lemur, lori, karkidon, tapir, yoʻlbars; sharqida uchqir, mangust, qoplon va h.k. uchraydi. Xitoyning shimoli-sharqida Sibir tayga faunasiga xos hayvonlar, choʻllarda ot, kulon, jayran, ikki urkachli tuya, yumronqoziq, dasht va togʻ dashtida kiyik, qumsichqon, yovvoyi quy, echki, turli yirtqich va sudralib yuruvchilar yashaydi. Bir necha koʻriqxonalar bor.

Xitoy hududida mavjud turli rel'ef formalari uning hududida ko'plab turdagi qazilma resurs konlarining mavjudligiga sababchi bo'ladi. U jahondagi deyarli barcha mineral resurs turlari ega bo'lgan kam sonli davlatlardan biri. Toshko'mir, qora va rangli metallar, kamyob rudalar, tog'-kimyo rudalari bo'yicha jahonning yetakchi davlatlaridan hisoblanadi. SHu bilan birga Xitoy mineral resurs zahiralarini haligacha to'liq o'rganilmagan (1-jadval).

Toshko'mir konlari Xitoyning deyarli barcha provintsiyalarida mavjud bo'lib, SHimol va SHimoli-sharqiy mintaqalar mazkur mineral resursning asosiy konlari joylashganligi bilan ajralib turadi. Asosiy havzalari bo'lib, SHanxay, SHen'sin', Kayluan', Fushun', Fusin' hisoblanadi. Umumiy ko'mir zahiralariga ko'ra jahon davlatlari orasida XXR AQSH va Rossiyadan keyin uchinchi, aniqlangan va qazib olinayotgan miqdoriga ko'ra (1 trln. t) birinchi o'rinni egallaydi.

Neft va gazning aniqlangan zahiralariga ko'ra Xitoy neft qazib oluvchi yetakchi davlatlardan ortda qolsa-da, neft qazib olish bo'yicha jahonda beshinchi o'rinni egallaydi (200 mln.t, qazib olishda jahon miqyosida 7%). Neft qazib oluvchi asosiy havzalar SHimoliy Xitoy (Boxay qo'ltig'i), SHimoli-sharqiy Xitoy hamda ichki Xitoyning Jung'or va TSaydam botiqlari hisoblanadi. Tabiiy gaz esa Sichuan' botig'idan qazib olinadi. Bundan tashqari, XXRda yonuvchi slanets ham mavjud (shimoli-sharq va janubda). [8]

XXR mineral resurslari miqdori va uni qazib olish bo'yicha jahonda tutgan o'rni

№	Mineral resurs turi	Asosiy markazlari	Yillik qazib olish miqdori	Jahonda tutgan o'rni
1	Toshko'mir (1 trln.dan ortiq)	Shensiy, Kayluan, Fushun	3162,0 mln.t	birinchi
2	Qo'ng'ir ko'mir		56 mln.t	ettinchi
3	Neft (3 mlrd.t)	Shimol va shimoli-sharqda	203 mln.t	beshtinchi
4	Gaz (200 mlrd. m ³)	Sichuan botig'i	97 mlrd. m ³	ettinchi
5	Temir rudasi (5 mlrd.t)	Shimol va shimoli-sharq	900,1 mln.t	birinchi
6	Boksit	Sharqda	40 mln.t	ikkinchi
7	Mis	Janubi va markazida	1,15 mln.t	to'rtinchi
8	Qo'rg'oshin	Janubi va markazida	1,75 mln.t	birinchi
9	Rux	Janubi va markazida	3,5 mln.t	birinchi

Bu yerda ko'p turdagi metall qazilma boyliklari ham uchraydi. Temir rudasiga boy bo'lgan An'shan' havzasi toshko'mirning asosiy konlari mavjud bo'lgan SHimoli-sharqiy Xitoyda joylashgan. Temir rudalarining sanoat zahiralariga ko'ra u jahonda uchinchi o'rinni egallaydi. Legirlanadigan va maxsus turdagi po'lat quyish uchun muhim bo'lgan vol'fram, molibden, marganetsning yirik zahirolari ham mavjud.

Rangli metall turlari asosan markaziy va janubiy provintsiyalarda to'plangan. Ular orasida alyuminiy xom ashyosi, mis, qalayi, simob, sur'ma, oltin va kumush zahiralariga ko'ra alohida ajralib turadi. Ko'pgina rayonlarda osh va tosh tuzi, fosforit konlari mavjud[12].

1.2. Xitoy Xalq Respublikasi aholisi va mehnat resurslari

Xitoy Xalq Respublikasi jahondagi aholi soniga ko'ra birinchi o'rinda turuvchi davlat hisoblanadi. Aholining umumiy soni 1,4 mlrd.ga yaqin. Bu yerda jahon aholisining deyarli 20% istiqomat qiladi. XX asr boshlarida bu yerda aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi o'rtacha 30 yoshni tashkil etgan bo'lib, tug'ilish (35-40‰) va o'limning (25-30‰) yuqori darajasi qayd etilgan. Bu holat esa o'z navbatida tabiiy ko'payishning past bo'lishiga olib kelgan. Aholining o'rtacha soni 400 mln. atrofida bo'lgan. XXR tashkil topgandan so'ng (1950 yillardan so'ng) demografik vaziyat tubdan o'zgardi. Tug'ilish oldingi davrlardagidek yuqori bo'lib, tibbiy xizmatning rivojlanganligi hisobiga o'lim darajasi pasaydi. Bu esa aholi sonining keskin oshishiga sababchi bo'ldi.

Aholi sonining tez su'ratlar bilan ortib ketishi mamlakatda 1970-yillardan boshlab aholi sonining o'sish darajasini kamaytirishga qaratilgan demografik siyosat olib borilishiga sababchi bo'ldi. Demografik siyosat olib borilishda qo'llanilgan huquqiy-ma'muriy choralar o'z samarasini berdi ("Bir oilaga bir bola" shiori). Buning natijasida sekin-asta tabiiy o'sish su'ratlari pasaya boshladi (2-jadvalga qaralsin). Demografik siyosat oqibatlari nafaqat davlat, balki jahon aholisining jinsiy, yosh tarkibiga ta'sir etdi. Hozirda XXR erkaklar salmog'i ayollar salmog'iga nisbatan yuqori bo'lgan jahonning kam sonli davlatlaridan biri hisoblanadi.

Aholining yosh tarkibiga ko'ra progressiv davlat (bolalar salmog'ining qariyalar salmog'iga qaraganda ko'pligi). Bu yerda bolalar salmog'i (0-14 yosh) – 18%, kattalar salmog'i (15-64 yosh) – 74%, qariyalar (65 yosh va undan kattalar) – 9%. Bu holat kelajakda ham nisbatan shu tarzda saqlanib qoladi deb aytish mumkin. Demografik siyosat natijasida aholining tabiiy ko'payishi darajasi sekin-asta pasayoyatganiga qaramay, hozirda ham mutloq tug'ilish miqdori bo'yicha Xitoy jahonda oldingi o'rinlarning birini egallaydi. O'rtacha umr ko'rish darajasi nisbatan yuqori – deyarli 75 yoshga teng (erkaklarda 73, ayollarda esa 77 yosh). XXR mehnat resurslari salmog'iga ko'ra ham jahondagi peshqadam davlatlardan

biri bo'lib hisoblanadi. Uning asosiy qismi hozirgi kunda ham qishloq xo'jaligida band (49%), Lekin, bu holat so'nggi yillarda o'zgarib bormoqdasr Yildan-yilga aholi jon boshiga to'g'ri keladigan haydaladigan yerlar miqdorining kamayib borayotganligi (hozirda 0,1 gasrdan kam) aholining migratsiyasiga sababchi bo'lmoqdasr Hozirda shaharlarda ham ortiqcha mehnat resurslari to'planib qolmoqdasr Ularni to'liq ish bilan ta'minlash imkoni mavjud emas. Mehnat resurslarining 22% sanoatda, 29% esa xizmat ko'rsatish sohalarida band. [15]

2-jadval

XXR aholisi soni va dinamikasi

Yillar	Aholining umum. soni, mln.k	Aholining tabiiy harakati, %		
		tug'ilish	o'lim	tabiiy ko'payish
1950	551,9	37	18	19
1960	662,1	20,9	25,4	-4,5
1970	829,9	33,4	7,6	25,8
1980	987,1	18,2	6,3	11,9
1990	1135,7	21,4	6,6	14,8
2000	1261,1	14	7	7
2012	1336	12	7	5

Davlatning ichida va uning tashqarisida ishchi kuchi migratsiyasi ahamiyatli miqdorga egasr Jahon davlatlarida “xuatsyao”larning (xitoylik emmigrantlar, ya'ni xorijiy xitoyliklar) salmog'i yuqori bo'lib, ularning umumiy soni 60 mln.dan oshadi. Xuatsyaolarning katta qismi Tayvan' oroli, Janubi-sharqiy Osiyoning Indoneziya, Malayziya, Tailand, Singapur kabi davlatlarida istiqomat qiladilar. Xitoyliklarning katta jamoalari AQSH va Rossiyada ham mavjud. Ular Xitoy iqtisodiyoti rivojiga katta xissa qo'shmoqdalar. Bu davlatga yo'naltirilayotgan xorijiy quyilmalarning katta qismi aynan ularga tegishli.

XXR hududida 56 ta millat vakillari (qabilalarni qo'shmaganda) istiqomat qiladi, Bu holat uning ko'p millatli davlat ekanini ko'rsatib berishiga qaramay,

aholining 92% xitoyliklardan (xanlardan) iborat. Xanlar asosan davlatning sharqiy qismlarida istiqomat qiladilar. G'arbiy hududlarda esa (umumiy mamlakat maydonining 2/3 qismi) turli etnik birliklar tarqalgan (chjuanlar, xueylar, uyg'urlar, tibetliklar, mo'g'illar, koreyslar, manchjurlar va b.).

Konfutsiylik, daosizm va buddizm (lamaizm) aholi orasida eng ko'p e'tiqod qilinadigan diniy ko'rinishlar hisoblanadi. SHimoli-g'arbda islomga e'tiqod qiluvchilar salmog'i yuqori. Lekin, xitoyliklarni diniy e'tiqodlari kuchli deb hisoblab bo'lmaydi. CHunki, XXRning sotsialistik tipdagi davlat ekanligi, ularning katta qismining ateist (diniy e'tiqodi yo'q, unga ishonmaydigan insonlar) hisoblanadi.

Xitoy urbanizatsiyasi ham o'z xususiyatlari bilan ajralib turadi. XX asrning o'rtalarigacha bo'lgan davrda shahar aholisi 10%dan oshmagan bo'lsa, 1950-yillardan so'ng ularning miqdori 20%, 1990 yillarning o'rtalariga kelib taxminan 50%ni tashkil etdi. Bu holatning yuzaga kelishida 1980-1990 yillarda amalga oshirilgan ma'muriy choralar ham sabab bo'ldi. Ya'ni, yangi talabga ko'ra aholi soni 3000dan oshgan sanoat, savdo yoki xunarmandchilik markazlarida aholining 85% qishloq xo'jaligidan boshqa sohalarda band bo'lsa shahar maqomiga ega bo'la boshladi. Xitoyning sanoatlashgan shimoli-sharqi eng urbanizatsiyalashgan mintaqaga bo'lib hisoblanadi. Mamlakatda aholisining soni 1 mln.dan ortiq bo'lgan millioner shaharlar ko'p (ularning soni 40 dan ortiq, ba'zi manbaalarda 60 dan ortiq). Bunday tipdagi shaharlar orasida SHanxay (24 mln. aholi), Pekin (20 mln.dan ortiq), Tyan'tsin' (15 mln), Guan'chjou (14mln),CHunchin (8 mln) eng yiriklari hisoblanadi.

Hozirda rivojlanayotgan urbanizatsiya shakliga xos tarzda shaharlarining bir-biriga qo'shilib ketishi, ya'ni, aglomeratsiya jarayonlari kuchaymoqdasr Ayniqsa, millioner shaharlar atrofidagi asta-sekinlik bilan politsentrik aglomeratsiyalar rivojlanmoqdasr Ularining soni 1980 yillarda 20 tani tashkil etgan bo'lsa, hozirda 50 taga yetmoqdasr Aglomeratsiyalarning asosiy qismi sharqda joylashgan bo'lib, ularda davlat shahar aholisining 50%dan ortig'i istiqomat qiladi. Bundan tashqari, Xitoy hududida urbanizatsion jarayonlarga xos bo'lgan yana bir

ko'rinish – megalopolislar shakllanishi (yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalarining bir-biriga qo'shilib ketishi) yuzaga kelmoqdasr Mutaxassislar hisob-kitoblariga qaraganda Pekin – Tyan'tszin' yo'nalishida "Pektyan", SHanxay – Nankin – CHjenchjou oralig'ida "SHanchjen", Guanchjou, SHen'chjen', Syangan hudularida "Guansyan" megalopolislari shakllanmoqdasr

Aholi barcha davlatlarda bo'lgani kabi hududlar bo'ylab notekis taqsimlangan. Aholining asosiy qismi dengiz bo'yi va daryo vodiylarida to'plangan. O'rtacha zichlik 1 km²ga 141 kishini tashkil etgan holda, Tibet avtonom rayonida bu ko'rsatkich 1,5 kishiga, Buyuk Xitoy tekisligining janubiy qismlarida 400-500 kishiga teng. CHo'l va baland tog' mintaqalarida aholi zichligi o'ta past bo'lsa, dehqonchilik mintaqalarida aholi zich to'plangan areallar ko'p.

Umuman demografik ko'rsatkichlar nafaqat XXRning ichki mintaqalarida balki uning ko'p yillar xorijliklar nazoratida bo'lgan maxsus hududlarida ham katta tafovutlarga ega (3-jadval).

3-jadval

XXR va uning maxsus provintsiyalaridagi demografik ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	Xitoy	Gonkong	Makao	Tayvan'
Tug'ilish, ‰	12	13	9	7
O'lim, ‰	7	6	3	6
Tabiiy o'sish, ‰	5	7	6	1
1 yoshgacha bolalar o'limi, ‰	17	2	3	4
O'rtacha umr ko'rish darajasi, yosh	74	83	82	79
Urbanizatsiya darajasi, %	50	100	100	78
Migratsion sal'do, %	0	3	13	1
Aholi jon boshiga YaMM, dollar his.	6890	44540	57390	-
O'rtacha zichlik	141	6488	1423	644

Bu holatning yuzaga kelishi birinchi navbatda, ularning turli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatiga egaligi, tibbiy xizmat va aholi yashash sharoitidagi tafovutlar ham sababchi bo'lgan.

Umuman, Xitoy aholisi va mehnat resurslari uning iqtisodiyoti rivojlanishida ijobiy ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiyot tarmoqlarini arzon va milliy mentalitetdan kelib chiqqan holda tartibli ishchi kuchi bilan ta'minlanishiga asos bo'ladi. [4]

1.2. Tarixiy rivojlanish bosqichlari va ularga xos jarayonlarning iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'siri.

Shimoliy Xitoy hududida ilk ibtidoiy madaniyat qoldiqlari, Pekin yaqinida ilk paleolit davri manzilgohlaridan toshga aylangan sinantrop qoldiqlari topilgan. Xitoyda urta paleolit davriga mansub Xetao (Ordos) madaniyati, sunggi neolit davriga mansub Yanshao va Lunshan madaniyatlari, ayniqsa, mashhur. Yanshao madaniyatida (taxm. mil. av. 3ming yillik urtalaridan 2ming yillik o'rtalarigacha) odamlar ovchilik va baliq ovlash bilan birga dehqonchilik va chorvachilik bilan ham shug'ullanganlar. Xitoyda ibtidoiy jamoa tuzumi jez davrigacha davom etgan.

Mil. av. 1766—1122 yil Xuanxe daryosining o'rtasida dastavval Shang, keyinchalik Yin deb nomlangan (Shang-Yin davri) ilk davlat tuzumi tashkil topgan. Yin davlati uzoq yillar davomida qo'shni qabilalar bilan urush olib borganligi tufayli mil. av. 11-asrga kelib uning hududi birmuncha kengaydi.

In davrida madaniyat rivojlandi, Oy kalendarining belgilari, yozuv — hozirgi xitoy iyeroglif yozuvining ibtidosi paydo bo'ldi. Shu davrda Yin davlatining g'arb tomonida Chjou deb nomlangan qabila kuchayib, o'z davlatini tashkil qildi (mil. av. 1122—256) va Yin davlatini bosib oldi. Chjou davlati g'arbiy Chjou (mil. av. 1122—771) va Sharqiy Chjou (mil. av. 770—256) kabi 2 qismga bo'lingan.

Ushbu davrda quldorlik yanada rivojlandi. Bu davr kurashuvchi yoki urushuvchi davlatlar davri (Chjango davri — mil. av. 475—221) deb nomlandi. Mazkur davrda urush Sin, Chin, Chu, Xan, Chjao, Vey, Yan kabi 7 davlat orasida yuz berdi. Chjango davrida temir i.ch., undan kurol yasash tez rivojlandi. Bu hol dehqonchilik taraqqiyotiga taʼsir koʻrsatdi. Hunarmandchilik ixtisoslasha boshladi, savdosotiq taraqqiy etdi, shaharlar qurildi va u devorlar bilan oʻraldi. Yerga xususiy egalik paydo boʻldi.

Chjango davrida podsholiklar oʻrtasida olib borilgan urushlar Sin podsholigining gʻalabasi bilan tugallandi. Natijada Xitoyda birinchi markazlashgan Sin imperiyasi (mil. av. 221—207) barpo etildi. Imperiyaning asoschisi va birinchi imperatori Sin Shixuandi mamlakatni birlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan qator islohotlar oʻtkazdi. Uning davrida xunlarga qarshi mudofaa devorini qurish maqsadida shimoldagi podsholiklar devorlari birlashtirilib, Buyuk Xitoy devori barpo etildi. Ogʻir zulmga javoban xalq gʻalayonlari koʻtarilib, mil. av. 206 yilda Sin imperiyasi tugatiddi. 25 yil qoʻzgʻolonchilar poytaxt Chanʼanni egallagandan soʻng Gʻarbiy Xan imperiyasi tugatildi. Zamindor zodagonlar qoʻzgʻolonchilarga qarshi kurash mobaynida Lyu Syu boshchiligida Soʻnggi (Ikkinchi yoki Sharqiy Xan) imperiya (25—220)ga asos soldilar.

4—6-asrlarda budda yer egaligi rivojlandi. Buddizm Xitoyga mil. 1-asrda Hindistondan Gʻarbiy va Sharqiy Turkiston orqali kirib kelgan. Janubdagi davlatlar xitoylar tomonidan, shim.dagi davlatlar esa xitoy boʻlmagan xalqlar tomonidan tashkil etildi. 581 yilda Xitoydagi mayda davlatlarni birlashtirish asosida Suy sulolasi (581—618), 618 yilda Tan sulolasi (618—907) hokimiyat tepasiga keldi.

13-asrning birinchi oʻn yilligida moʻgʻullar Xitoyni istilo kilishga kirishib, 1279 yilda uning barcha xududini bosib oldilar. Xitoy va Tibet xalqdari moʻgʻullarning Yuan sulolasi hukmronligi (1271—1368; X.da 1280 yildan)

ostida yashadi. Xitoy xalqining mo'g'ul bosqinchilariga qarshi olib borgan ko'p yillik kurashi 14-asr o'rtalarida Min sulolasi (1368—1644)ning vujudga kelishi bilan yakunlandi.

16-asrda Xitoyda yevropaliklar paydo bo'ldi. 1557 yil Portugaliya Xitoyning Aomin xududini "ijara"ga oldi. 1628—45 yillardagi dehqonlar urushi natijasida Min sulolasi barxam topdi. Xitoyni manjur bosqinchilari bosib oldi.

17—18-asrlarda Sin imperiyasi bilan rasmiy munosabatlar urnatishda muvaffakiyatga erisha olmagan g'arb davlatlari, birinchi navbatda, Buyuk Britaniya 18-asr oxirlaridan Xitoyga tazyiq o'tkaza boshladi. Ingliz savdogarlari Xitoyga ko'plab afyun keltira boshladilar. 1839 yilga kelib ingliz-xitoy munosabatlari keskinlashdi va 1840—42 yillarda Angliya bilan Xitoy o'rtasida birinchi "afyun" urushi bo'lib o'tdi. Natijada inglizlar Xitoyda bir qator imtiyozlarni qo'lga kiritdilar. 1842 yil Nankin shartnomasiga ko'ra, Xitoy Angliya savdosi uchun 5 ta portini ochishga, Syangan (Gonkong) orolini Angliyaga berishga, tovon to'lash, savdo imtiyozlari va boshqalarni berishga majbur bo'ldi. 18-asr oxirlaridan Sin imperiyasi inqirozga yuz tutdi. Sinfy va milliy ziddiyatlar kuchaydi. 1844 yil Xitoy AQSH hamda Fransiya ham shunday imtiyozlar beradigan shartnomalarni imzolashga majbur bo'ldi. Xitoy yarim mustamlaka mamlakatga aylana boshladi.

1856 yil Angliya, so'ngra Fransiya Xitoydagi mavqelarini yanada mustahkamlash maqsadida Xitoyga qarshi yangi urush ochdilar (ikkinchi "afyun" urushi). Ular 1858 yil shimolidagi Dagu fortlarini egallab, Tyantszin va Pekinga jiddiy xavf sodsilar. Sin hukumati taslim bo'ldi. 1860 yil Angliya Fransiya ekspeditsiyasi Pekinni ishrol qidsi. 1860 yilgi Pekin shartnomalariga ko'ra, Xitoy Angliya bilan Fransiya katta tovon to'lashga, Buyuk Britaniyaga Szyulun (Koulun) orolining bir qismini berishga, chet el savdosi uchun Tyantszinni ochib qo'yish va boshqa shartlarga rozi bo'ldi.

1860-yillardan Angliya, Fransiya va AQSH Sin hukumatiga taypinlarga qarshi kurashda yordam bera boshladi. "Afyun" urushlari va taypinlar qoʻzgʻolonining bostirilishi natijasida Angliya, AQSH va Fransiya Xitoydagi mavqelarini mustahkamlab oldi. 1884—85 yillardagi Xitoy-Fransiya urushida Xitoy yengiddi. Oʻsha yillari Xitoyning Yaponiya bilan munosabatlari yomonlashdi. Yaponiya 1874 yilda Tayvanni bosib olishga urindi. 1879 yilda Ryukyu orollarini egalladi. 1894 yil esa Yaponiya Xitoy urushi boshlandi. Xitoy bu urushda yengildi. Urush natijasida shu davrgacha Xitoy qoʻl ostida boʻlgan Koreya mustaqillikka erishdi, Tayvan oroli va Penxuledao olari Yaponiyaga berildi. Germaniya, Fransiya, Bugok Britaniya, Yaponiya va Chor Rossiyasi Xitoyning bir qancha hududini "ijara"ga oldilar va Xitoyda oʻz taʼsir doiralarini barpo etdilar. Xitoyning boshqa davlatlar tomonidan bosib olinishi va Sin hukmdorlarining taslimchilik siyosati Xitoyda katta norozilikka sabab boʻldi.

20-asr boshida Xitoy yarim mustamlaka mamlakat namunasi edi. 1911 yil dekabrda Sun Yatsen 16 yillik emigratsiyadan qaytib keddi. 1912 yil 1 yanvarda Xitoy rasman respublika deb eʼlon qilindi. 1912 yil 12 fevralda Sin sulolasi agʻdarilib, monarxiya bekor qilindi. Inqilobiy viloyatlar vakillarining Nankindagi majlisida Sun Yatsen Xitoy respublikasining muvaqqat prezidenti qilib saylandi. Ammo shimolidagi xitoy pomeschiklari va harbiy doiralari Yuan Shikay boshchiligida inqilobiy janubiga qarshi harbiy harakatlarni boshladi.

1912 yil 25 avgustida Sun Yatsen tarafdorlari Gomindan partiyasini tuzdilar. Xitoyda Shimoliy Xitoy va Janubiy Xitoy hukumatlari paydo boʻldi.

I-jahon urushi (1914—18) davrida Yaponiya Xitoyga nisbatan oʻz ekspansiyasini kuchaytirdi. Pekinning Antanta davlatlari bilan bogʻlangan militaristik hukumati 1917 yil avgustida Germaniyaga qarshi urush eʼlon qildi. Janubiy Xitoy hukumatini 1917 yil sentyabrdan 1919 yilgacha Sun Yatsen boshqardi.

1925—27 yillarda Xitoyda kommunistlar rahbarligida inqilob boʻldi. 1925 yil 1 iyulda Guanchjou hukumati oʻzini Milliy hukumat deb eʼlon qildi. 1925—26 yillarda MIA Guansi, Guychjou provinsiyalari va Xunan provinsiyasining janubiy qismida inqilobiy hokimiyat oʻrnatdi. Shundan keyin kommunistlar bilan gomindanchilar oʻrtasida hokimiyat uchun kurash boshlandi. Kommunistlar sovet hukumati, Chan Kayshi boshchiligidagi gomindanchilar AQSH yordamiga suvandi. Sovet hukumati yordamidan toʻla foydalanish maqsadida kommunistlar oʻz bazalarini shimolga koʻchirishni lozim topdi. Xitoyning koʻp qismida gomindan hukmronligiga qaramasdan ayrim qishloq rayonlarida XKP rahbarligida Xitoy Qizil armiyasi otryadlari, oʻsha davrda sovetlar deb ataluvchi inkilobiy demokratik hokimiyat oʻchokdari (asosan, Janubiy va Markaziy Xitoyda) tuzildi, demokratik tadbirlar amalga oshiriddi. 1931 yil oxirida yapon qoʻshinlari Shimoli Sharqiy Xitoyni ishgʻol qilib, 1932 yilda Manchjou Go qoʻgʻirchoq hukumatini tuzdi. 1937 yil iyulda Yaponiya butun Xitoyni bosib olish rejasini amalga oshirishga kirishdi. Urushning birinchi oylaridayoq yaponlar Xitoyning katta qismini, jumladan, Beypin (Pekin), Tyantszin, Shanxay va boshqa shaharlarini bosib oldi. Xitoy xalqining yapon bosqinchilariga qarshi ozodlik urushi (1937—45) boshlandi. Xalqning tazyiqi ostida gomindan rahbarlari 1937 yil 23 sentabrda XKP bilan gomindan oʻrtasida hamkorlik oʻrnatilganligini maʼlum qildi.

1945 yil 13 oktyabrda Chan Kayshi hukumati qoʻshinlari ozod kilingan hududlarga hujum boshladi. Gomindan hukumati va XKP harbiy harakatlarni toʻxtatishga kelishgan (1946 yil 10 yanvar) boʻlsa ham 1946 yil iyulda Chan Kayshi tarafdorlari butun mamlakat miqyosida fuqarolar urushini yana boshlab yubordi. 1949 yil kuzga kelib Xitoy Xalq ozodlik armiyasi hujumni davom ettirdi va Shimoli Gʻarbiy Xitoy va Markaziy Xitoy, Janub va Janubi Gʻarbiy Xitoyning katta qismini ozod qildi. Chan Kayshi toʻdasi esa Tayvanga qochdi. 1949 yil 1 oktyabrda Pekinda Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) tuzilganligi eʼlon qilindi. Sharqiy Turkiston, Ichki Mongoliya va Tibet ham ushbu respublikaga kiritiddi.

XXR tuzilgach, davlatni boshqarishni o'z zimmasiga olgan Mao Szedun boshchiligidagi Xitoy rahbariyati va XKP XXRning bosh yo'li — mamlakatda sotsialistik jamiyat qurish ekanligini e'lon qildi va xususiy mulkni davlat mulkiga aylantirish, qishloq xo'jaligi jamoalashtirish, sotsializmning sovet modeli negizini yaratish yo'lini tanladi. 1954 yil sentyabrda Umumxitoy xalq vakillari majlisining 1 sessiyasi bo'lib, XXR konstitutsiyasi qabul qilindi.

50-yillarning 2-yarmida Mao Szedun boshchiligidagi XXR rahbarlari 1958— 60 yillarda "katta sakrash" (besh yil mobaynida sanoat ishlab chiqarishini 6,5 marta, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini 2,5 marta ko'paytirish) yo'lini tutdilar.

1966—76 yillarda "madaniy inqilob" amalga oshirildi. Mao Szedun shaxsiga sig'inish avj oldi. Xavfsizlik organlari va armiya ishtirokida, shuningdek, siyosiy jihatdan chiniqmagan o'quvchi yoshlar va talabalardan tuzilgan xunveybinlar ("qizil qo'riqchilar") hamda shaofanlar ("g'alayonchilar") otryadlari yordamida Mao Szedun ko'rsatmasiga binoan minglarcha mas'ul partiya va davlat xodimlari va ziyolilar ishdan olinib, surgun qilindi yoki uy qamog'ida saklandi. Xitoy KPning bu siyosati (keyinchalik Xitoyda keskin tankidga uchragan) Mao Szedun vafoti (1976)dan keyin qayta ko'rib chikildi. Bunda iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali 21-asr o'rtalariga kelib Xitoyni yuksak darajada rivojlangan davlatga aylantirish vazifasi qo'yildi. Korxonalarning xo'jalik yuritish faoliyatidagi mustaqilligi oshirildi, ko'p ukladli iktisodiyotga ruxsat berildi, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish maqsadida Xitoyda "ochiq iqtisodiy rnlr" va "maxsus iqtisodiy hududlar" tashkil etildi. Xitoyning Buyuk Britaniya bilan tuzgan bitimi (1989)ga muvofiq Syangan (Gonkong) Xitoyga o'tdi va XXRning maxsus ma'muriy rni maqomini oldi.

Xitoy 1991 yil 27 dekabrda O'zR suverenitetini tan olgan va 1992 yil 2 yanvarda diplomatiya munosabatlari o'rnatgan. Milliy bayrami — 1 oktyabr — Respublika e'lon qilingan kun (1949). [8,10]

II - BOB. XXR IQTISODIYOTI TARMOQLARINING HUDUDIIY RIVOJLANISHI.

2.1. XXR iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari.

1949 yil Xitoy o'z siyosiy mustaqilligini e'lon qilishi arafasida qoloq agrar respublika sifatida ajralib turardi. Asosan dengizbo'yi hududlarda joylashgan xorijiy kapital asosida faoliyat olib boradigan bir qancha hududlarda asosan to'qimachilik, oziq-ovqat hamda mashinasozlikning ba'zi tarmoqlari rivojlangan edi. Qolgan ichki hududlarda esa asosan qishloq xo'jaligi rivojlanganligi bilan ajralib turardi.

XXR oldidagi birinchi asosiy vazifa sifatida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish vazifasi qo'yildi. Mao TSzedun boshchiligidagi xukumat olib borgan iqtisodiy islohatlar natijasida og'ir sanoat tarmoqlari rivojlantirilishiga katta ahamiyatqaratildi. Natijada, sanoatning milliy daromad va YaMMdagi ulushi ortib boshladi. Xitoy xo'jaligining tarixiy rivojlanishida Sobiq SSSR ning ta'siri kuchli bo'lgan. Sobiq SSSR Xitoy xalq respublikasiga 1,8 mlrd so'm kredit bergan va 260 ta yirik korxona qurishga yordam bergan. 1960 yillardan Mao Szedum siyosati ("katta sakrash" va "madaniy revolyusiya") sababli Sovet-Xitoy munosabatlari yomonlashgan va chegara notinchligi kuzatilgan. 1980 yillardan 2 davlat munosabatlari yana yaxshilangan.

Den Syaopin boshchiligidagi xukumat 1980-yillardan boshlab yangicha iqtisodiy siyosat – "uch qadam" siyosatini amalga oshirishni boshladi. Natijada, yagona davlat mulki bilan bir qatorda shaxsiy mulk ham rivojlana borildi. Turli ishbiarmonlar va jamoalarga korxonalarni ijaraga berish jarayoni amalga oshirila boshlandi. Dengizbo'yi hududlarda qo'shma korxonalar soni orta boshladi.

Qishloq xo'jaligi rivojlanish jarayoni ham tezlashib, yer 50-100 yil muddat davomida dehqonlarga ijaraga berila boshlandi. Bu holat oilaviy pudratning rivojlanishiga sababchi bo'ldi. Sanoat, qishloq xo'jaligi bilan bir qatorda mudofaa hamda ta'lim sohalarida ham keng ko'lamli islohatlar olib borila

boshlandi. Bu xarakatlar o'z samarasini bergan holda XXR iqtisodiyoti tez su'ratlar bilan rivojlana boshladi.

Zamonaviy Xitoy industrial-agrar xususiyatga ega davlat bo'lib hisoblanib, bu yerda an'anaviy iqtisodiyot bilan bir qatorda zamonaviy xo'jalik tarmoqlari ham rivojlanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. U bir qator sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirib berish bo'yicha jahonda oldingi o'rinlarni egallaydi (2-jadval). [8,9]

4-jadval

XXRning sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha jahonda tutgan o'rni

Ko'mir	birinchi	Mevalar	birinchi
Temir rudasi	birinchi	Sabzavotlar	birinchi
CHO'yan	birinchi	Yog' beruvchi ekinlar	birinchi
Po'lat	birinchi	G'o'sht	birinchi
Vol'fram	birinchi	Tuxum	birinchi
Rux	birinchi	Baliq va dengiz mahsulotlari	birinchi
Qo'rg'oshin	birinchi	Don	birinchi
Rux	birinchi	Kartoshka	birinchi
Alyuminiy	birinchi	Paxta	birinchi
Mineral o'g'it	birinchi	Boksit	ikkinchi
TSement	birinchi	Magniy	ikkinchi
Radiopriyomnik	birinchi	Molibden	ikkinchi
Televizor	birinchi	Elektroenergiya	ikkinchi
Kir yuvish mashinalari	birinchi	Muzlatkich	ikkinchi
Velosiped	birinchi	Kimyoviy tola	ikkinchi
Poyabzal	birinchi	Qog'oz	ikkinchi
Pivo	birinchi	Makkajo'xori	ikkinchi
Sigaretlar	birinchi	CHoy	ikkinchi
Er yong'oq	birinchi	Xom jun	ikkinchi

Xitoy sanoatini avvalambor og'ir sanoat belgilaydi. Og'ir sanoatning yoqilg'i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo kabi sanoat tarmoqlarida katta miqdorda ishlab chiqiladigan mahsulotlarning asosiy qismi ichki iste'mol uchun sarflanadi(3-jadval).

XXRda asosiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Mahsulot turi	Ishlab chiqarish hajmi	Jahonda egallagan o'rni
CHO'yan	600 mln. t	birinchi
Po'lat	626,7 mln. t	birinchi
Glinozym	20 mln. t	birinchi
Birlamchi alyuminiy i/ch	16,8 mln.t	birinchi
Tozalangan mis	3,78 mln. t	birinchi
Tozalangan qo'rg'oshin	3,2 mln.t	birinchi
Tozalangan rux	3,9 mln.t	birinchi
Avtotransport vositalari i/ch	18,3 mln. dona	birinchi
Engil avtomobillar	13,95 mln. dona	birinchi
Azot o'g'itlar	27,7 ming t	birinchi
Fosfor o'g'itlar	13,5 ming t	birinchi
Kimyoviy tola	27,5 mln.t	birinchi
TSement	1,8 mlrd.t	birinchi

Og'ir sanoat tarmoqlari orasida, ayniqsa toshko'mir qazib chiqarish muhim rol o'ynaydi. Asosiy ko'mir havzalari Shimoli-Sharqda (Fushun va Fusin) va Shimoliy Xitoydadir. (Datun). Fushun va Fusinda ko'mir asosan shaxta va ochiq usulda, Datunda esa shaxta usulida qazib olinadi. Ko'mir konlarining metallurgiya markazlariga yaqinligi iqtisodiy qulaylikni oshiradi. Xitoy 1987 yil 920 mln t. 1990 yil 1100mln t., 2012 yilda esa 3162 mln. t ko'mir qazib olib jahonda etakchilik qilmoqdasr Neft asosan mamlakatni shimoli-g'arbida va Sichuon Ra viloyatida qazib olinadi. Eng yirik neft koni Dasinga konidir.

Mamlakatda 2012 -yil 230 mln t. neft qazib olindi (jahonda 5-o'rinda). Xitoy xalq respublikasida 1987- yil 496 mlrd kVt/s, 2000-yil 930 mlrd kVt / s, 2012 yil esa 4244,8 mlrd kVt/s (dunyoda 1-o'rin) elektr energiyasi hosil qilingan bo'lib, uning asosiy qismi (81,3 % i) IES larda hosil qilingan. IES lar asosan mamlakatning shimoli-sharqiy va sharqida ya'ni ko'mir havzalari atroflarida joylashgan. GES lar Xuanxe va Yanszi daryolarining yuqori oqimlarida qurilgan (16,2% elektr energiyani ishlab beradi). 2012 yildan boshlab Xitoyda jahondagi eng yirik GES – “Sans'ya” (Uch dara) faoliyat olib bora boshladi. AES lar ham

mavjud bo'lib, 6 ta AESda 20 ta yadroviy reaktorlar ishlamoqdasr Mazkur tarmoq umumiy energiya 2%dan ortig'ini ishlab bermoqdasr Xitoyda noodatiy energiya manbalaridan ham (Geotermal va qalqish ES) foydalaniladi.

Mtalluriya majmuasida faoliyat olib boruvchi bir mingdan ortiq metalluriya korxonalari bo'lib, asosiy mahsulotni 11 ta yirik va 20 ta o'rta metalluriya kombinatlari ishlab beradi. Qora metalluriya sanoatining asosiy markazlari kokslanuvchi yirik ko'mir va ruda konlari bo'lgan rayonlarda vujudga kelgan. Ularning ichida eng yirigi shimoli-sharqdagi Anshan metalluriya kombinati bo'lib, bu erda yiliga 7-8 mln t. cho'yan eritiladi. Shimoliy Xitoydagi eng yirik kombinat Baotouda, mrakaziy Janubiy Xitoyda Uxanda joylashgan.

Temir zahirasi bo'yicha hamda qazib olish bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Xitoy Xalq respublikasida 2012-yil 626,7 mln t. po'lat, 600 mln t. cho'yan eritilindi (birinchi o'rinda). Taqqoslash uchun 2000-yil 115 mln t. po'lat quyilgan.

Rangli metalluriya rivoji uchun zaruriy xom ashyo bazasi mavjud bo'lib, alyuminiy, qalay, sur'ma, simob, oltin, kumush kabi turli rangli metallar qayta ishlanadi. Ishlab chiqarilayotgan qalayi, simob va sur'maning $\frac{1}{2}$ - $\frac{1}{3}$ qismi eksport qilinadi. Ishlab chiqarishdagi yildan-yilga rangli metallarga bo'lgan talabning ortishi e'tiborga olinib, alyuminiy, mis, qo'rg'oshin kabi metallar import sifatida qo'shimcha tarzda xorijdan olib kelinadi. XXRning janubi va janubi-g'arbida ranli metallarni qazib olish, boyitish va quyish jarayonlari bir tekisda rivojlangan bo'lsa (Kun'min, Getszyu, SHaoguan' va b.), shimol va shimoli-g'arbda qazib olish va boyitish jarayonlari amalga oshiriladi (Baotou, Lan'jou va b.). Iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan sharq va shimoli-sharqda esa asosan rangli metalluriyaning tugallanuvchi so'nggi bosqichlari rivojlangan (SHen'yan, SHanxay va b.).

Mashinasozlik korxonalarida ixtisoslashgan korxonalar emas, universal korxonalar ustun turadi. Ular asosan yirik shaharlarda, dengiz portlarida, metalluriya bazalari yaqinida joylashgan. Masalan: Shenlida og'ir mashinalar va stanoklar, Chanchunda avtomobillar, ayniqsa Yanszi bo'ylarida mashinasozlik rivojlangan. Shanxayda dengiz kemalari ishlab chiqariladi. Xitoy Xalq

respublikasida 1987-yil 18,3 mln. avtotransport vositalari, 40 ming dona traktor ishlab chiqarilgan. Xitoyda mashinasozlikning deyarli barcha tarmoqlari rivojlangan. Og'ir mashinasozlik shimoli-sharqda va sharqda (SHen'yan', Xarbin, Dalyan', Nankin, SHanxay va b.), transport mashinasozligi, aniq mashinasozlik Tinch okeanbo'yi provintsiyalarida rivojlangan.

Yirik tog'-kon, yoqilg'i sanoatlari mahsulotlari va chiqindilari kimyo sanoati rivoji uchun zaruriy xom-ashyoni yetkazib beradi. Lekin tarmoqning ishlab chiqarish quvvati ichki iste'molni to'liq ehtiyojini qondira olmaydi. Polimer materiallar, mineral o'g'itlar, ishqorlar va qishloq xo'jaligi ekinlari uchun zarur bo'ladigan dori vositalarning asosiy qismi xorijdan keltiriladi. Tarmoqning asosiy markazlari SHanxay, Tyan'tszin'Pekin, CHuntsin kabi shaharlarda joylashgan.

Engil sanoat Xitoyning qadimdan rivojlangan an'anaviy tarmog'i bo'lib hisoblanadi. Ushbu tarmoq ichki tovar aylanma, aholi bandligi, qishloq xo'jaligining rivojlanishi, bir qator mashinasozlik va kimyo sanoati tarmoqlarining rivojlanishiga turtki bo'lgan. U Xitoyning eng iqtisodiy samaradorligi yuqori tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Tarmoq boshqa yengil sanoat peshqadami bo'lgan davlatlardan o'z xom ashyo bazasiga egaligi bilan ajralib turadi. SHu bilan birga mahsulot ishlab chiqarishda asosan tabiiy tolalardan foydalanishi bilan ham alohida o'ziga xoslik kasb etadi. Ishlab chiqarishda tabiiy tolalardan gazlama to'qish 60%dan ortiq miqdorga teng. To'qimachilik, tikuvchilik, trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish, charm-poyabzal tarmoqlari yengil sanoatning yetakchi sohalari hisoblanadi.

Ma'lumki, Xitoy ip –gazlama ishlab chiqarishda dunyoda birinchi o'rinda turadi. Ishlab chiqarilgan gazlamaning 90% i ip-gazlamalardir. Mamlakatning asosiy paxta bazasi Shimoliy Xitoy, ip-gazlama sanoati Shanxayda joylashgan.

Oziq-ovqat sanoatida sholi tozalash va un tortish sohalari yetakchilik qiladi. Bundan tashqari, turli asosga ega bo'lgan yog' olish, meva va go'sht konservalari ishlab chiqarish tarmoqlari ham rivojlangan. Hozirgi kunda XXR choy, tamaki, pivo kabi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha ham jahonda yetakchilik qilmoqda. [10]

Qishloq xo'jaligi jahondagi eng ko'p sonli aholi iste'moli uchun mahsulot ishlab chiqarishdan tashqari eksport uchun ham mahsulot ishlab chiqaradi. Qadimiy dehqonchilik mintaqalaridan biri hisoblangan Xitoy dehqonchiligi 50 turdan ortiq dala, 80 turdan ortiq sabzavot va poliz, 60 turdan ortiq bog'dorchilik mahsulotlarini yetishtirib beradi. Dehqonchilik tarmog'i chorvachilikka nisbatan ustun soha hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida 400 mln dan ortiq kishi band.

Dehqonchilikning muhim tarmog'i bo'lib g'allachilik hisoblanadi. So'nggi yillarda Xitoyda 500 mln t.dan ortiq g'alla yetishtirildi. Uning asosiy qismini (190mln t) sholi tashkil etadi. Sholi mamlakatni asosan janubi-sharqida, ya'ni Yashil Xitoyda (choy xam). Bug'doy (120 mln t.) shimoli-sharqida, shuningdek makkajo'xori, gaolyan "Sariq Xitoy"da yetishtiriladi. Bundan tashqari, yillarda so'nggi Xitoyda 4,5 mln t. paxta tolasi, 885 ming t. choy, 70 mln. t. kartoshka etishtirildi.

Mamlakatni shimoli-g'arbiy va g'arbiy qismlari "quruq Xitoy" deyiladi. Bu erda ekstensiv chorvachilik, janubi-g'arbda – "sovuq Xitoy" da (Tibet, Kunlun, Himolay) qishloq xo'jaligi sust rivojlangan. Cho'chqalar soni dunyo bo'yicha 870 mln, Xitoyda 400 mln, qo'y va echkilar 400 mln, qoramol 126 mln., yilqilar soni esa 8 mln. boshni tashkil qiladi.

Xitoy transport tizimi o'tgan so'nggi tarixiy davrlar davomida dengiz portlari va davlatning ichki qismlari orasidagi aloqani ta'minlashga xizmat qilgan. Yuklarning katta qismi daryo va kanallar orqali tashilgan. SHu bilan birga ot-ulov ham ahamiyatli hisoblangan. Hozirgi kunga kelib yuk va aholi tashishda zamonaviy transport tarmoqlarining roli ortib bormoqdasr

Yuklarning $\frac{3}{4}$ qismi temir yo'l orqali tashiladi. Lekin uning yildan yilga salmog'i kamaya bormoqdasr Ularning uzunligi 86 ming km. Xitoyning sharqiy portlari temir yol orqali Mongoliya, Rossiya, Markaziy Osiyo davlatlari, Eron va Yevropa mamlakatlari bilan boglangan. Avtomobil yo'llari uzunligi 3, 86 mln. kilometr. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha XXR jahonda ikkinchi o'rinda turadi. Hozirgi kunda Lyan'yun'gandan xitoy-qozoq chegarasigacha bo'lgan hududda zamonaviy avtomagistral qurilmoqdasr Bu yo'nalish zamonaviy "Buyuk Ipak

yo'li" – TRASEKAning bir qismi bo'lishi rejalashtirilgan. So'nggi yillarda tez yurar avtomobil yo'llari qurish rivojlangan. Ularning uz. 8733 km.

Ichki suv yo'llarining uzunligi 110 ming km dan ortiq. Yantszi daryosi asosiy daryo transporti yo'lagi bo'lib hisoblanadi. Buyuk kanal (Pekindan Xanchjougacha 2000 kmdan ortiq) daryo transportida ikkinchi o'rnida turadi. Bundan tashqari, Amur, Xuanxe, CHjutszyan daryolarida ham daryo transporti rivojlangan.

Dengiz transporti tashqi savdo aylanmasida muhim ahamiyatga egasr Yirik dengiz portlari: Shanxay, Dalyan, Sinxuandao, Sindao, Guanchjou (Xuanpu bilan), Tyantszin (Singan bilan). Ular orasida SHanxay porti jahonning yuk tashish hajmiga ko'ra yetakchi porti hisoblanadi.

500 ta aeroport orqali XXRning ko'p shaharlari jahondagi yirik shaharlar bilan havo yo'llari orqali bog'langan.

Xitoy chetga ko'mir, choy, baliq, to'qimachilik xom ashyosi, shoyi mahsulotlari, traktor va avtomobil, volfram rudasi, elektron, to'qimachilik va mashinasozlik sanoati mahsulotlari chiqaradi. Chetdan mashina va jihozlar, murakkab hisoblash texnikasi, neft, g'alla, kimyoviy o'g'it, yog'och va boshqalar oladi. Tashqi savdoda Yaponiya, AQSH, Germaniya, Rossiya, Pokiston bilan hamkorlik qiladi. [13]

XXRda nomoddiy tarmoq sohalari ham yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Ular orasida ta'lim, tibbiyot, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va bank ishi hamda turizm sohalari eng serdaromad xizmat ko'rsatish sohalari bo'lib hisoblanadi.

Ayniqsa, jahonda Xitoy ta'lim tizimiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Xitoy Xalq Respublikasi ta'lim tizimi ham tajriba o'rganishga loyiq o'ziga xos jihatlarga ega. Xitoy kadimdan sharkdagi yirik davlatlardan biri bo'lgan. Kadimgi Xitoyda pedagogik fikrlar, ta'limotlarning paydo bo'lishi eramizdan avvalgi 2

ming yillik o'rtalariga to'g'ri keladi va ular asosan konfutsiylik, daosizm, Yan CHju ta'limotlarida o'z ifodasini topgan.

Xitoyda ta'lim olishning o'ziga xos asosiy jihatlari quyidagilar:

- Xitoyda ta'lim olish unchalik ko'p mablag' talab qilmaydi (1500 – 3000 AQSH \$);
- Talabalar uyida yashash haqqi yiliga 600 AQSH \$ga teng;
- SHarq tillarini o'rganish imkoniyati yuqori. Jahonning yuqori darajada rivojlangan davlatlaridan biri bo'lgan Yaponiya, “Osiyo yo'lbarzlari”dan biri bo'lgan Koreya Respublikasi bilan qo'shnichilik ularga kelajakda yaxshi ish topish imkoniyatini yaratib beradi;
- O'quv yili boshi yiliga ikki marta to'g'ri keladi;
- Fakultativ mashg'ulotlar bepul bo'lib, bu yerda qadimiy Xitoy san'ati (kalligrafiya, Xitoy oshxonasi, jang san'ati sirlari, raqs, rasm chizish va boshqalar) bilan tanishish imkoniyati mavjud;
- Xorijiy sharq va g'arb tillarini o'rganish mumkin;
- Har bir universitet kutubxonalarida ko'p sonli kitoblar mavjud bo'lib, ular orasida qadimiy manuskriptlar bilan bir qatorda zamonaviy mashhur gazeta va jurnallar nashrlari ham bor.

Xitoy mo'jizalaridan biri hisoblangan ta'lim tizimi muassasalarida ta'lim berish o'z fuqarolari uchun bepul bo'lib, bu soha to'liq davlat nazorati ostiga olingan.

SHu bilan birga Xitoyning qadimiy tarixiy yodgorliklari hamda go'zal tabiat manzaralari chet ellik sayyohlarning e'tiborini tortmoqda. Bundan tashqari, moliyaviy xizmatlar va bank ishi sohasi ham tez su'ratlar bilan rivojlanib, hozirda ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlar e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Masalan, 2013 yil yakunlariga ko'ra Forbes Global 2000 reytingiga ko'ra XXRning **ICBC**, **China Construction Bank** va **Agricultural Bank of China** birinchi o'ntalik guruhidan o'rin olganlar. [16]

2.2. XXR iqtisodiy rayonlari

Xitoy hududi uchun tabiiy sharoitda, tarixiy rivojlanishida aholi va xo'jalik geografiyasida katta farqlar bor. 80 - yillar boshida rayonlar to'rini qayta ishlab chiqish boshlandi, uni asosida mamlakat xududini 3 ta zonaga bo'lish yetar edi: Sharqiy, Markaziy, G'arbiy

I. Kuchli iqtisodiy Sharqiy zona yangi, ilmtalab tarmoqlar va sanoat ishlab chiqarishida chet el kapital qo'yilmalarini jlb etishda, eksport tovarlar ishlab chiqarishda yetakchi bo'lishi kerak. Uning tarkibiga 8 ta dengiz bo'yi provinsiyalari va markazga bo'ysinuvchi barcha shaharlar – Shanxay, Pekin, Tyanszin kiradi. Uning rivojlanishi “maxsus iqtisodiy zona” shakllanishi bilan bog'liq. Unda chet el va Xitoy kapitallari to'planib ilmtalab tarmoqlar – elektronika va elektrotexnika yoki yuqori foyda keltiruvchi - to'qimachilik, tikuvchilik, oziq – ovqat sanoatlarini keyingi rivojlanishini belgilab beradi.

Kuchli ijtimoiy va ishlab chiqarish strukturasi tashkil etilmoqdasr Undan tashqari chet el kapitallari uchun 14 ta portlar ochilgan, Xaynan oroli va Yanszi, Chjusyan daryo delta hududlari alohida tashqi iqtisodiy maqom olinadi.

II. Markaziy zona yoqilg'i elektroenergiya, kimyo mahsulotlari, xom ashyo va yarim fabrikatlarni katta hissasini o'zida to'playdi. Qulay sharoit yaratilishiga mos ravishda fan va texnikani keyingi rivojini o'zida aks ettiruvchi tarmoqlar va ishlab chiqarishni tashkil etadi.

III. G'arbiy zona o'zini kichik sanoati bilan qishloq xo'jaligini o'sishiga e'tibor berilishi, mineral xom-ashyo resurslaridan foydalanish, barcha mahalliy xom ashyoni birinchi ishlovi kam aholili va kam o'zlashtirilgan xududlarda transportni tashkil etish bilan nisbatan bo'sh rivojlangan.

I. Sharqiy zonada quyidagi rayonlarni ajratish mumkin:

1. Janubiy Dunbey rayoni (Lyanojin provinsiyasi) og'ir sanoat bazasini tashkil etish uchun tabiiy resurslarga boyligi bilan farq qiladi.

Rayonni rivojlantirishda avvalo og'ir sanoat tarmog'iga kiritilgan yapon kapitali muhim rol o'ynaydi. 50 – yillarda Xitoyda “Sovet modeli” bo'yicha sanoatlashtirishga o'tildi, Janubiy Dunbey rayonini mamlakatga ahamiyati oshdi.

Rayonni asosiy farq qiluvchi jihati – boshqa dengizbo'yi rayonlariga qaraganda ichki resurslarga yo'naltirilgan rivojlanish nisbatan kattasr Ko'mir zaxirasi (Fushun, Fusin), temir rudasi (Anshan), yoquvchi slanes (Xuachjan) asosida kuchli yoqilg'i – energetika va metallurgiya – mashinasozlik komplekslari shakllandi. Kimyo sanoatida ba'zaviy mahsulotlar, polimer materiallari yuqori darajaga yetdi.

Qishloq xo'jaligi yuqori darajada rivojlanganligi bilan farq qiladi. Asosiy donli ekinlar – gaolyan, tariq, makkajo'xori, bug'doy, sholi.

Texnika ekinlari ichida yuqori tovar va eksport darajasi bilan soya, yeryong'oq, tamaki ekinlari ajralib turadi. Laonin – mamlakatni boshqa rayonlariga va eksport uchun olmani asosiy yetkazib beruvchisidir.

Dalyan shahri (yirik dengiz porti) va Lyaoxe daryo deltasi xududi rayonda tashqi iqtisodiy aloqalarda imtiyozlarga egasr

2. Xebey rayoni. Uning tarkibiga markazga bo'ysinuvchi Pekin va Tyanszin shaharlari, Xebey provinsiyasi kiradi. Rayonning asosiy jihatlari quyidagilar: poytaxtligi, xizmat ko'rsatish tarmog'ida ilmtalab sohalarni rivoji uchun sharoitning mavjudligi, rayon hududida 2 ta yirik markazlar – Pekin va Tyanszin borligi zonalarini o'zaro raqobatida ularning iqtisodiy ta'siri va xo'jalikni xududiy tuzilishdagi ko'rinishini belgilab berishi, rayon xududidan foydalanishda qishloq xo'jaligi tarixan shakllanishi, uni atrofi qadimiy Xitoy “sholi” madaniyatini o'choqlaridan birini shakllanishi hisoblanadi.

Rayon katta mineral resurs zaxiralariga ega, ular ichida toshko'mir, neft, temir rudasi, osh tuzi konlari bor. Ularni qazib chiqarish rayonning asosiy ehtiyojlarini qondiradi.

Poytaxt rayonida yirik va turli tuman sanoatlar joylashgan.

Yangi qurilishlar uchun xududiy cheklanganligi, haydaladigan yerlarni kamyobligi juda katta muammo bo`lib turibdi.

3. Shandun rayoni. – Shandun provinsiyasini – Buyuk Xitoy tekisligini bir qismini va Shandun yarim orolini qamrab oladi. Aholining o`ta zich joylashishi, qishloq xududlarida mehnatga yaroqli aholining ko`pligi hamda qulay agroiklimiy, suv va yer resurslarining mavjudligi qishloq xo`jaligida yuqori mehnat unumdorligiga sabab bo`ldi va qishloq sanoatini rivojlanishiga asos bo`ldi.

Sanoat majmuasi foydali qazilmalarni mahalliy resurlaridan foydalanish bazasida tuzilgan. Yirik sanoatlar uchun neft, ko`mir, boksit, qurilish materiallari, tuz olish asos bo`lib xizmat qildi. Qishloq xo`jalik xom ashyosini qayta ishlash (oziq-ovqatga – yog`, yengil sanoatda – to`qimachilik) rivojlangan.

Mashinasozlik (transport), kimyo (soda mahsulotlari, o`g`it), metallurgiya shakllanmoqdasr

Rayonning asosiy xo`jalik o`qi sanoat markazlarida joylashgan. Temiryo`llar Sindao-Szinan. “Ochiq shahar” Sindao – mamlakatni tashqi savdosiga (yoqilg`i, paxta eksporti) xizmat qiluvchi yetakchi portlardan biri.

4. Szyansu – Chjeszyan rayoni Shanxay bilan birgalikda Szyansu, Chjeszyan, Anxay provinsiyalarini o`z ichiga oladi.

Rayonning asosiy jixati Shanxayni keskin dominionligidir. Ishlab chiqarishni o`shidagi ba`zi cheklovlar va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hissasidagi qisqartirishlarga qaramay, shahar – mamlakatning yirik iqtisodiy markazi bo`lib qolmoqdasr Rayon sanoat rivojining yuqori darajasida nafaqat miqdoriy, balki sifat ko`rsatkichlari bilan farq qiladi.

Shanxayning qudratli ilmiy – tekshirish va konstruktorlik bazasi sanoatni yuqori mahsuldorligini ta`minlaydi hamda yangi, bir muncha murakkab va ilmtalab ishlab chiqarishni yaratishni taqozo qiladi. Jumladan qishloq sanoati jadal sur`atlar bilan rivojlanmoqdasr Ko`pgina ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksporti o`rtacha Xitoy ko`rsatkichidan yuqori. Rayon iqtisodini “ochiqligi” yuqori

darajaga yetmoqda, xududi kengaymoqda, chet el investitsiyalari uchun imtiyozlar yaratilmoqdasr

5. Funzyan rayoni. (Funzyan va Syansi provinsiyasi).

Uzoq muddat davomida xo`jalik rivojlanishida turg`unlikda bo`lgan. Bunday holat uni atrofidagi raqobatchi Shanxay va Guanchjou iqtisodiy rayonlariniing “soya”lari ostida bo`lishiga sababchi bo`lgan.

Xo`jalik aloqalarida shimolda ham, janubda ham IGO` ni o`ziga xosligi va xo`jalikni ixtisoslashganligidadir. O`zining energiya xom ashyo bazasini yo`qligi iqtisodiy rayonni rivojlanishida tashqi omillarni va ichki resurslarni roli katta bo`ldi.

Rayon xo`jalikni ixtisoslashuvi mehnattalab ishlab chiqarishni rivojlanishini, shuningdek qayta ishlashga mo`ljallanganini belgilab beradi. Yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ustun turadi. Qishloq xo`jaligida sholi, paxta, choy yetishtirish uchun sharoit qulayil

6. Janubiy rayonga Guandun va Xaynan provinsiyalari kiradi. 1997 yildan uning tarkibiga rayon Syangan, 1999 yildan – Aomin rayoni kiritilgan.

XXP ni janubiy dengiz bo`yida joylashgan iqtisodiy rayoni jahon miqyosidagi yirik iqtisodiy tugunga aylandi. Rayonning o`ziga xosligi: qulay xalqaro transport – geografik sharoitda ekanligi natijasida ushbu rayonga chet el sarmoyalarini kelishi tezlashdi. Bundan tashqari rayon atrofida Makao (XVI asr) va Gankongni (XIX asr oxiri) mustamlakaga aylanishiga ta`sir ko`rsatdi. Gankong bilan “ochiq eshik” lar siyosati davrida yaqin iqtisodiy munosabatlar, uning xududlarini “ochiqlik” darajasi, Xitoyning boshqa rayonlariga nisbatan hajmini dinamik o`sishiga, iqtisodni eksportga mo`ljallanganligi va xo`jalik tizimi nisbatlarini o`zgarishi rayonni rivojlanishiga ta`sir ko`rsatdi.

Xaynan oroli alohida iqtisodiy maqom oldi va mustaqil provinsiya bo`lib qoldi.

II. Markaziy zona – boy mineral va energiya resurslari hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ustun turadi. Ko'pchilik xom ashyo turlari dengiz bo'yi rayonlaridan ko'mir Shansi provinsiyasidan, yog'och Xaylunshyan provinsiyasidan va Ichki Mo'g'uliston avtonom rayonidan, don va paxta Markaziy tekislikdan keltiriladi.

1. Yanszini o'rta oqimidagi rayon. Xenan, Xubey, Xunan provinsiyalari xududini qamrab oladi. Bu mamlakatni asosiy qishloq xo'jaligi areallaridan biri, sug'orma dehqonchilikni bosh rayoni, haydaladigan yerlardan eng yuqori darajada foydalaniladi. Yetakchi tarmog'i – dehqonchilik, unda oziq – ovqat ekinlari yetishtirish ustun turadi. Ular rayon ehtiyojidan ortib qoladi. Muhim texnika ekinlari – paxta, choy, rami.

Umumdavlat mehnat taqsimotida rayonni rolini og'ir sanoat belgilab beradi. U mahalliy xom ashyo asosida tashkil qilingan. Unda qora va rangli metallurgiya, kimyo sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish ajralib turadi. Mashinasozlik, asosan metaltalab mashinasozlik katta rivojlanishga ega bo'ldi. Biroq sanoatning keyingi rivojlanishiga yoqilg'i – energetika bazasini cheklanganligi bilan texnik hamkorlikda "Sansya" GESi qurilishi boshlangan.

2. Shansiy rayoni. Xo'jalikda asosiy tuzum tashkil etuvchi rayonni yoqilg'i – energetika, metallurgiya va kimyo komplekslarini shakllanishini belgilab beradi.

Toshko'mir zahirasi va qazib chiqarishi bo'yicha (200 mln. t.) Shansiy provinsiyasi 1-o'rinda turadi. Asosiy havza – Datun energetik va kokslanuvchi ko'mirga egasrYansyuan havzasi mamlakatda antrosit qazib chiqarishi bilan ajralib turadi. Ko'mirni katta qismi ko'mir havzasi atrofida iste'mol qilinadi: energetik – IES larda, kokslanuvchi – metallurgiya va kimyodasr

Qishloq xo'jaligida don yetishtirishga yo'nalgan su'gorilmaydigan dehqonchilik ustun turadi (lalmi – bug'doy va gaolyan). Sug'orma yerlar – daryo vodiylarida paxta va sholi, adirlarni yonbag'ridagi vodiylarda – Xitoy uchun xos bo'lmagan o'simlik- -uzum ekinlari bilan band. Tog'-kon, elektroenetgetika,

metallurgiya va kimyo sanoatlari yuqori darajada to'planganligi shahar va qishloq joylarda atrof – muhit muhofazasi muammosini kuchaytirdi.

III. G'arbiy zona – Xitoyni 70 % xududini va 28 % aholisini qamrab oladi.

Zonani muhim jihatlari: ulkan o'zlashtirilmagan yerlar, siyrak aholi, foydalanish qiyin bo'lgan katta energiya va resurs quvvatiga ega ekanligi, zonani uzoqda joylashganligi. Katta miqdorda sarmoya kiritilishiga qaramay faqat bir nechta sanoat markazlari rivojlana oldi. Zonani ichkaisida iqtisodiy rayonlar shakllanmagan.

1. Sichuan rayoni – zonani bir muncha o'zlashtirilgan qismi, aholisi o'ta zich joylashgan (Chendu tekisligida 1 km² ga 900 kishidan ortiq to'g'ri keladi). Rayon qiyin intensiv qishloq xo'jaligi bilan farq qiladi. Bu yer mamlakatni boquvchisi, sug'oriladigan yerlardan 1 yilda 2-3 marta don va sabzavotlar hosili yig'ib olinadi.

Texnika ekinlaridan shakarqamish, choy, tamaki, dorivor o'simliklar, paxta yetishtiriladi. Sichuan o'zining mevali bog'lari bilan asosan sitruslari bilan mashhur.

Shakllanayotgan sanoat majmuasida ko'plab tarmoqlar ichida oziq-ovqat, o'rmon, tikuvchilik yetakchi bo'lib qolmoqdasr Sanoatlanish yillarida og'ir sanoat, jumladan mashinasozlik juda rivojlangan. Bazaviy ishlab chiqarish ichida mahalliy xom ashyodan foydalanuvchi qora metallurgiya ajralib turadi.

Tog' - kimyo xom ashyo konlarini qayta ishlashda neft va tabiiy gaz kimyo sanoatini rivojlanishiga imkon berdi. Asosan mineral o'g'itlar, polimerlar kimyosi, ishlab chiqarishni rivojlantiradi.

Zonaning qolgan xududlari qoloq qishloq xo'jaligiga egadir. [8]

XXR iqtisodiy mintaqalari bilan bir qatorda 5 ta erkin iqtisodiy zonalar va 16 ta ochiq shaharlar ham tashkil qilingan bo'lib, bu hududlar davlatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Ularni tashkil etishdan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

1. Xorijiy quyilmalar, ilg'or texnika va texnologiyalarni maksimal darajada jalb etgan holda fantalab tarmoq korxonalarini tashkil etish;
2. Xalqaro geografik mehnat taqsimotida faol ishtirok etish, eksport va valyuta tushumlarini ko'paytirish;
3. XXR hududida zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishda EIHlarni tajriba maydoni sifatida ko'rish;
4. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini "osiyo yo'lbarzlari" darajasiga ko'tarish;
5. Arzon ishchi kuchidan samarali foydalanish.

SHench'jen', SHan'tau, Syamen',CHjuxay, Xaynan iqtisodiy zonalari orasida SHench'jen' o'z iqtisodiy salohiyatiga ko'ra alohida ajralib tursa, ochiq port shaharlar orasida esa SHanxay, Tyan'tszin', Dalyan', Guanchjouning roli kattadir.

Umuman har bir davlatda bo'lgani kabi XXR iqtisodiyoti hududiy rivojlanishida ham tafovutlar mavjud bo'lib, uni bartaraf etish uchun maxsus mintaqaviy iqtisodiy siyosat olib borilmoqda. [11]

III-BOB. XXR BILAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI O'RTASIDAGI ALOQALARNING TARIXIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

3.1. O'zbekiston-Xitoy munosabatlarining rivojlanishi

O'zbekiston hududi chorrahasi bo'lganligi tufayli ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar bir necha ming yillik tarixga egasr Ammo birinchi Xitoy elchisi Chjan Syanning qad. Farg'ona (Davan, Dayyuan) davlatiga kelishi mil. av. 128 yilda yuz bergan. Ushbu voqeani ikki davlat o'rtasidagi diplomatik aloqaning boshlanishi deb hisoblash mumkin. Elchi vataniga qaytib borgandan so'ng , xitoyliklar nafaqat Farg'ona, balki butun O'rta Osiyo haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan. Shuning uchun ular elchini g'arbga boradigan ochgan shaxs deb bilishadi. Chjan Syandan keyin hoz. O'zbekiston hududiga kelib ketgan elchilar va budda rohiblarining soni ko'paygan. Qadim zamondan beri O'zbekiston va X. o'rtasida ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan savdo va b. munosabatlar rivojlangan. Shu bilan birga ikki mamlakat o'rtasida noxush damlar ham bo'lib o'tgan. Masalan, Xitoyda tezlik vositasi va boylik mezoni hisoblangan Farg'ona tulporlarini qo'lga kiritish maqsadida Xan imperiyasi qo'shinlarining Farg'onaga qilgan urushi (mil. av. 104—100) va Tan imperiyasi armiyasining Toshkentga qilgan harbiy yurishi (658) bunga misoldir. Aloqalarning rivojlanishi bilan birga uzum, shaftoli, mosh, piyoz, oshqovoq kabi mevasabzavotlar va tandir noni, somsa kabi oziq-ovqatlarning yurtimiz va qo'shni davlatlardan Xitoyga tarqalishi kuzatilgan. O'tgan o'rta va qad. asrlarda hoz. O'zbekiston hududida yashagan ko'p kishilar Xitoyga borib faoliyat ko'rsatganlar. Ular nafaqat savdo ishlarida, balki qurilish, fan va texnika sohasida ham nom chiqarishgan. Ayniqsa, Xitoyda tashkil topgan va Yuan deb nomlangan mo'gullar sulolasi davri (1279—1368)da Mahmud Yalavoch, Umar Shamsiddin va b. davlat ishlarida, Jamoliddin Buxoriy, Kamoliddin, Muhammad Buxoriy, xorazmlik Ahmad Fanakatiy va b. matematika va astronomiya sohasida ulkan ishlar qilib, Xitoyda mashhur bo'lganlar. 13—14asrlarda bir qator tabiblar Xitoyda faoliyat ko'rsatgan, ular

yordamida Ibn Smnoning "Tib qonunlari" xitoy tiliga tarjima qilingan va u xitoy tabobati durdonasi hisoblangan "Xueyxuey yaofan" ("Musulmon dorivorlari") hamda "Bentsao ganmu" ("Giyoh dorivorlar qonuni") asarlarining yaratilishida asos boʻlgan. Oʻzbekistonliklar Xitoyda islomning tarqalishiga ham katta hissa qoʻshishgan. Shu zamonlarda Samarqanddan borgan va oʻgʻuz qabilasining solor urugʻi avlodidan boʻlgan 40 dan ortiq oila Sinxay viloyatiga borib joylashgan. Ularning avlodi koʻpayib hozir XXRda mavjud boʻlgan 56 xalq (millat) ning birini tashkil qiladi.

1368 yil hokimiyat tepasiga kelgan Min sulolasi davrida orqali amalga oshiriladigan Xitoy va Turkiston oʻrtasidagi aloqalar biroz susaydi. Ammo Temuriylar davrida bu aloqalar yana jonlandi.

1950 yildan Oʻzbekiston Xitoyning SintszyanUygʻur muxtor rayoniga kadrlar tayyorlash, mahalliy aholini uygʻur, qozoq tillaridagi adabiyot va oʻquv kitoblari bilan taʼminlash, tibbiy yordam koʻrsatish, yer osti boyliklarni aniqlash, irrigatsiya tizimini yaxshilash boʻyicha katta yordam koʻrsatdi. Adabiyotlarni nashr qilish uchun Toshkentda maxsus tahririyat, kadrlar tayyorlash uchun Oʻrta Osiyo davlat universiteti (hozirgi Oʻzbekiston milliy universiteti)da maxsus kafedra tashkil etildi. 1978 yildan Oʻzbekiston talabalari Xitoyga til oʻrganish uchun yuborildi. Toshkentda termos ishlab chiqaruvchi Xitoy Oʻzbekiston qoʻshma korxonasi tashkil etildi (1987). Shu yili Uzbekistanga XXRning birinchi rasmiy delegatsiyasi tashrif buyurdi. 1990 yil noyabrda Sintszyan Uygʻur muxtor respublikasi raisi Temur Davomat Toshkentga keldi. 1991 yil iyunda ilk bor Oʻzbekistonning rasmiy delegatsiyasi Urumchiga bordi. Ikki davlat oʻrtasida savdo va turistik aloqalar jonlandi.

1991 yil XXR Oʻzbekiston mustaqilligini tan olib, 1992 yil Diplomatiya munosabatlari oʻrnatilgach, ikki mamlakat oʻrtasida teng huquqli aloqalar oʻrnatila boshladi. Oʻtgan yillar davomida ikki davlat oʻrtasida 100 dan ortiq rasmiy hujjatlar imzolandi. 1992 yil 15 oktyabrda Toshkentda XXR elchixonasi,

1995 yil 6 mayda Pekinda O'zbekiston elchixonasi ochildi. Shu davr davomida O'zR Prezidenti I. Karimov 4 marta (1992, 1994, 1999, 2001 yil) rasmiy tashrif bilan Xitoyda bo'ldi. Ilk bor rasmiy tashrif bilan 1995 yil O'zbekistonga XXR Davlat kengashi boshlig'i Li Pen kelgan. XXR raisi Szyan Szemin (1996) va uning o'rnini egallagan Xu Szintao (2004)lar ham rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga keldilar. Xu Szintao XXR raisining o'rinbosari sifatida 1995 yilda ham O'zbekistonda bo'lgan. Bundan tashqari, o'tgan davr davomida ikki davlat tashqi ishlar vazirlari, Vazirlar Mahkamasi rahbar xodimlari, Parlament delegatsiyalari va b.ning o'zaro tashriflari amalga oshirildi. 1994 yilda ikki mamlakat o'rtasida tuzilgan savdo iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya doimiy faoliyat ko'rsatib kelmoqdasr Xu Szintaoning 2004 yil iyundagi O'zRga tashrifi chog'ida O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida sheriklik munosabatlari, do'stlik va hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlash to'g'risida ko'shma deklaratsiya, shuningdek, narkotik vositalarning , psixotrop moddalarning noqununiy aylanishi va suiiste'mol etilishiga qarshi kurashda xamkorlik qilishga, texnikaviy iqtisodiy hamkorlikka oid bitimlar imzolandi. 2003 yil ikki tomon tovar ayirboshlash hajmi 216 mln. AQSH dollariga teng bo'ldi. Shundan O'zbekistonning XXRga qilgan eksporta 53 mln., importi 163 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. So'nggi yillarda O'zbekiston bozorlarida Xitoy mollarining ko'payganligini kuzatish mumkin. Xitoydan O'zbekistonga texnika, elektronika, elektr jihozlari, kofe, xalq iste'mol mollari, choy va ziravor, optika priborlari va apparatlari, transport vositalari, to'qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechak, poyabzal va boshqalar keltiriladi. O'zbekiston Xitoyga ranggi metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar, mineral yonilg'i, neft va neft mahsulotlari, paxta va ipak tolasi, plastmassa va oshqalar yuboradi. Ayni vaktida O'zbekistonda Xitoy investorlari ishtirokida tuzilgan 122 korxana ro'yxatdan o'tgan. Shulardan 102 tasi qo'shma korxona, 20 tasi 100% Xitoy sarmoyasi hisobidagi korxonadir. Respublikada Xitoyning savdo hamda Xitoy kompaniyalarining 23 vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqdasr Xitoyning O'zbekistonga kiritilgan sarmoyasi hajmi 435 mln. AQSH dollarini tashkil etadi.

Ikki mamlakat oʻrtasida madaniyat, fan, texnika va taʼlim sohasida ham hamkorlik rivojlanmoqdasr Xitoy vakillari Samarqandda oʻtkaziladigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida, Oʻzbekiston folklor jamoalari Pekinda har yili oʻtadigan xalqaro madaniyat va turizm festivalida muntazam ishtirok etadilar.

1996 yil Pekinda OʻzR Fanlar akademiyasi bilan XXR Fanlar akademiyasi oʻrtasida oʻzaro hamkorlik toʻgʻrisida, 2000 yil Toshkentda OʻzR Fanlar akademiyasi bilan XXR Ijtimoiy FA oʻrtasida bitim imzolandi. 1997 yil OʻzR Prezidenti I. Karimovning "Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asari X.da xitoy tiliga tarjima kilinib chop etildi. Shu yil Oʻzbekistonga bagʻishlangan maxsus jurnal va 2004 yil kitob nashrdan chiqdi. Toshkent bilan Shanxay shaharlari, Buxoro viloyati bilan Xubey provinsiyasi, Toshkent viloyati bilan Shansi provinsiyasi oʻrtasida oʻzaro hamkorlik munosabatlari oʻrnatilgan. 2000 yilda ilmiytexnika hamkorligi boʻyicha maxsus qoʻmita tashkil etilgan. 2001 yil Toshkentda Xitoy madaniy markazi tashkil topdi. 2002 yilda Toshkentda "XXR fani va texnikasi kunlari" deb nomlangan koʻrgazma boʻlib oʻtdi. 2003 yil Chanchun (Szilin oʻlkasi) shahrida Kamoliddin Behzodning haykali oʻrnatildi. 2004 yilda Pekinda Oʻzbekiston — XXR munosabatlariga bagʻishlangan ilmiy anjuman, Toshkentda xitoy madaniyati kunlari oʻtkazildi. Ikki davlat oʻrtasida talabalar almashuvi ham amalga oshirilmoqdasr 2004 yil iyunda Oʻzbekiston Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi bilan Xitoy taʼlim vazirligi oʻrtasida Toshkentda xitoy tilini oʻrganish boʻyicha Konfutsiy nomidagi institutni tashkil etish toʻgʻrisida bitim imzolandi.

2001 yilda Oʻzbekiston Shanxay hamkorlik tashkilotiga aʼzo boʻlgandan beri ushbu tashkilot doirasidagi munosabatlar rivojlanmoqdasr Ayniqsa, terrorizmga qarshi kurash va Urta Osiyoda xavfsizlikni taʼminlash sohasida ikki tomonlama hamkorlik kengaymoqdasr Mazkur tashkilotning yuridik asoslarini ishlab chiqish va uning amaliy vazifalarini belgilashda Oʻzbekiston faol ishtirok etdi. 2004yil iyunda Toshkentda ushbu tashkilotning navbatdagi sammiti boʻlib

o'rti va unda mintaqaviy aksilterroristik markazning ijroiyo qo'mitasi rasman ochildi.

2004 yildan O'zbekiston va XXRning Sintszyan Uyg'ur muxtor rayoni televideniye kompaniyalari o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yildi. Toshkent telestudiyasi XXR haqida, Urumchi telestudiyasi O'zbekiston haqida ko'rsatuvlar olib bormoqdasr Sport sohasida ham ikki davlat o'rtasidagi aloqalar mavjud. Ikki tomonlama hamkorlikning rivojlanishiga 1998 yil 1 dekabrda tuzilgan "O'zbekiston — Xitoy" do'stlik jamiyati munosib hissa qo'shib kelmoqdasr

So'nggi yillarda XXR va O'zbekiston o'rtasida yuz berayotgan iqtisodiy aloqalar orasida «Huawei Technologies» bilan hamkorlik muhim ahamiyatga egasr Bu haqda kompaniya bosh direktori Van Ifan quyidagicha fikr bildiradi: "... O'zbekiston bilan bizni 10 yillik tarix bog'lab turibdi. Huawei kompaniyamizning offislari Toshkentda mavjud. Biz shu davr ichida O'zbekistonning Terekon sektori bilan yuqori sifatga ega bo'ldik. Shu bilan bir qatorda, yangi texnologiyalarga ega bo'lmoqdamiz.

Kelajakda biz hamkorlarimiz ishonchini yanada oshirishga harakat qilib, ularni yanda mamnun bo'lishligiga harakat qilamiz. Shu kungacha Huawei kompaniyasi bir necha loyihada ish olib bormoqdasr Bundan tashqari, O'zbekiston mamlakatining boshqa sohalarining rivojlanishiga hissa qo'shmoqchimiz.

Biz Terekon sektorida talabalarni rag'batlantirishni tashkil etdib, ularga homiylik qildik. Kelajakda O'zbekiston yoshlari Xitoy va boshqa mamlkatlarning yangi texnologiyalarni kashfiyotlarini o'rgatish uchun sharoit yaratishni maqsad qildik. O'ylaymanki, ushbu jarayon orqali ishimizning samaradorligi 2 va 3 karra yaxshilanadi. Shuningdek, maqsadimiz O'zbekistonning yuqori texnologiyalarini Xitoy va boshqa mamlakatlarda tanitmoqchimiz".

Shu kungacha Huawei kompaniyasi O'zbekistonda bir necha loyihalarni amalga oshirdi. Ular doirasida o'zbek injenerlarining malkasini oshirishga ixtisoslashgan markaz tashkil etilishi katta amaliy ahamiyatga egasr

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasida Xitoy Xalq Respublikasi uchinchi o'rinni egallaydi. Ushbu davlat bilan tashqi savdo hajmi 10,2%ga teng.

3.2. «XXR iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari» mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish


Ma'lumki, ta'lim jarayoni o'quvchilarning bilim olish ko'nikma va malakalarini egallash, ularning ilmiy dunyoqarashi, ijodiy izlanishlarini rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladigan o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi sanaladi. Boshqacha aytganda, ta'lim mazmunini o'qitish metodlari yordamida o'zlashtirilishiga erishiladi. Har bir mashg'ulotda o'tiladigan mavzu, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari e'tiborga olingan holda kerakli usullar guruhi tanlanadi.

9-sinf "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fani jahon davlatlarining iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishi uning hududidagi ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri joylashtirilishi va ulardan samarali foydalanilish masalalarini tahlil qiladi. Mazkur o'quv fani maktab o'quv rejasida jami 68 soat ajratilgan bo'lib, haftasiga 2 martadan mashg'ulot o'tkazish rejalashtirilgan. Unda jahon siyosiy kartasining shakllanishi va unda joylashgan davlatlarda mavjud bo'lgan davlat tuzumi xususiyatlari, tabiiy resurslar, aholi, jahon xo'jaligi tarmoqlari mavzulari ko'rib o'tilishi bilan bir qatorda jahon iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan yirik davlatlari hamda mintaqalari haqida ham ma'lumot berilgan.

"Xitoy Xalq Respublikasi" mavzusi reja bo'yicha III-chorakda o'tilishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, unga ikki soat vaqt ajratilgan. Birinchi soatda (44-dars) XXRga umumiy tavsif berilib, uning tabiati va mehnat resurslari haqida ma'lumot

berilsa, reja bo'yicha ikkinchi soatda (45-dars) davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari hamda unda yuzaga kelgan hududiy tafovutlar ko'rib chiqiladi. Ikkinchi soatga tegishli masalalar "Xo'jaligi. Transporti, iqtisodiy rayonlari va ularning tafovutlari" mavzusida ko'rib chiqiladi. Bu mavzuni o'tish jarayonida o'quvchilar Xitoy xo'jaligi, sanoati va qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari haqida bilimlarga hamda davlat sanoatining asosiy tarmoqlarini aytib bera olish malakasiga ega bo'lishlari talab etiladi. Mavzu ma'lumotlari bo'yicha o'quvchilarga bilim berishda albatta, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati katta. Fikrimizcha, ayniqsa, "BBB", "CHarxpalak" usullari mavzuni o'quvchilar tomonidan mukammal o'zlashtirishlari uchun ahamiyatli hisoblanadi. [13]

"BBB" usuli – o'quvchilarning mazkur mavzu bo'yicha qanday tushunchalarga ega ekanliklarini, nimalarni bilib olganliklari va bilishni istashlari haqida ma'lumotga ega bo'lish.



Mazkur usuldan dars boshlanishi jarayonida qo'llanilishni boshlab, ta'lim oluvchilardan mavzu yuzasidan qanday tushunchalarga ega ekanliklari aniqlab olinadi. Dars yakunida esa qanday tushunchalarni bilib olganliklari va bilishni xoxlashlari haqida ma'lumotga ega bo'linadi. "Bilaman", "bilib oldim" va "bilishni xoxlayman" qismlarida ko'rsatilgan tushunchalar oralig'idagi nisbatga qarab dars samaradorligi aniqlanadi. [6]

"CHarxpalak" usuli – ta'lim oluvchilarni o'tilgan mavzularni eslashga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda iloji boricha to'la javob

berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda pedagogni ta'lim oluvchilarning bilimlarni egallaganlik darajasini baholashga qaratilgan usul.

Usulning maqsadi: ta'lim oluvchilarni o'quv jarayonida mantiqan fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga va talay fikrlardan keraklisini ajrata olishga o'rgatishdan iborat.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, rangli qalam yoki flomaster.

Usulning qo'llanilishi: usul o'quv mashg'ulotining barcha turlarida mashg'ulotning boshlanishi yoki oxirida yoxud o'quv predmetining biron bir bo'limini tugallanganida, o'tilgan mavzularni ta'lim oluvchilar o'zlashtirganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo'ljallangan. Mazkur usul o'quv jarayonida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu usul bo'yicha o'quv mashg'ulotini olib borish tartibi:

1. Ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratish;
2. Ta'lim oluvchilarni o'quv mashg'uloti olib borishda quyilgan talablar va qoidalar bilan tanishtirish;
3. Avvaldan tayyorlangan tarqatma materiallarni guruh a'zolariga tarqatish;
4. Guruh a'zolari tomonidan mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifalarni bajarish;
5. Har bir guruh a'zosi o'zining tarqatma materialining o'ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o'zining biron-bir belgisini chizadi;

6. Vazifasi bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlarga “charxpalak aylanmasi” yo’nalishida almashtiriladi.

7. Yangi guruh a’zolari tomonidan berilgan materiallar o’rganiladi va tegishli o’zgartirishlar kiritiladi.

8. Guruh a’zolari tomonidan o’rganilgan va o’zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo’nalish bo’yicha guruhlararo almashtiriladi.

9. Materiallarni oxirgi almashishidan so’ng har bir guruh va har bir guruh a’zosi o’zlari ilk bor to’ldirilgan materiallarni, qo’ygan belgilari orqali tanlab oladilar.

10. Har bir guruh a’zosi o’zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a’zolarining tuzatishlarini taqqoslaydi va tahlil qiladi.

11. Pedagog tarqatma materialda berilgan vazifani o’qiydi va jamoa bilan birgalikda to’g’ri javobni belgilaydi.

12. Har bir ta’lim oluvchi to’g’ri javob bilan o’zi bergan javobning farqini aniqlaydi va o’zini baholaydi.

13. Ta’lim oluvchilar o’z baholarini aniqlab olishgach, pedagog vazifa bajarilgan qog’ozlarni yig’ib oladi va baholarni guruh jurnaliga ko’chiradi. [5]

Bundan tashqari, ta’lim oluvchilarning yangi mavzuni o’zlashtirganlik darajasi dars yakunlanishidan bir oz oldin yopiq test orqali ham aniqlanishi mumkin. Yuqorida ta’rif berib o’tilgan usullar o’quvchilarning o’tilgan mavzuni chuqurroq o’zlashtirishlari, shu bilan birga mavzu bo’yicha zaruriy bilimga ega bo’lishlarida katta yordam beradi.

Noan’anaviy usulda “Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlar» mavzusi bo’yicha o’tkazigan dars mashg’ulotining taxminiy rejasi quyidagicha bo’lishi mumkin:

Dars № 45

Darsning mavzusi: “XXR xo’jaligi. Transporti, iqtisodiy rayonlari va ularning tafovutlari”

Darsning ta’limiy maqsadi: O’quvchilarga Xitoy Xalq Respublikasi xo’jaligining rivojlanish xususiyatlari, uning tarmoq tarkibi, transportning xo’jalikdagi ahamiyati hamda iqtisodiy rayonlarning ixtisoslashuvi natijasida yuzaga kelgan hududiy tafovutlar haqida bilim berish va tegishli ko’nikmalar hosil qilish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: O’quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, vatanparvarlik va tejamkorlik tarbiyasini berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O’quvchilarning XXR xo’jaligi tarmoqlarining turli-tumanligi, ularning rivojlanganlik holati haqidagi bilimlarni, darslik va xarita ustida mustaqil ishlash, ko’nikmalarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: XXRning iqtisodiy xaritasi, 9-sinf atlas va kontur kartasi, rangli qalamlar, marker, ixtiyoriy ravishda tanlangan kattalikdagi oq qog’oz.

Darsda foydalaniladigan texnologiya: Interfaol metod (“BBB”, “CHarxpalak” usullari)

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. O’qituvchining kirish so’zi. Bunda o’qituvchi dars mavzusining maqsadi va vazifalari, ilmiy munozara o’tkaziladigan muammolarning umumiy tafsiloti, darsda o’quvchilar guruhi bajaradigan o’quv topshiriqlari bilan tanishtiradi.

III. O’quvchilar faoliyatini munozarali va muammoli masalalarni bajarishga va hal etishga yo’llash:

- BBB jadvali tarqatilib, mavzu bo’yicha talabalarning dunyoqarashini aniqlash;

IV. Yangi mavzuni o’rganish:

- o’quvchilar guruhi o’rtasida “CHarxpalak” usuli yordamida o’quv bahsi va munozarani tashkil etish;
- yopiq test orqali yangi mavzu bo’yicha bilim darajalarini aniqlash;
- guruhlar tomonidan belgilangan o’quv topshiriqlarini sifatli bajarishga erishish.

**“XXR xo’jaligi. Transporti, iqtisodiy rayonlari va ularning tafovvtlari”
mavzusi bo’yicha o’tiladigan darsning texnologik kartasi**

Mavzu	XXR xo’jaligi. Transporti, iqtisodiy rayonlari va ularning tafovvtlari
Maqsad, vazifalari	Maqsad: Xitoy Xalq Respublikasi xo’jalik tarmoqlari, transporti, iqtisodiy rayonlari va ularning o’ziga xos xususiyatlari haqida bilimlar berish va tegishli ko‘nikmalar hosil qilish. Vazifalar: Xitoy xo’jaligining o’ziga xos xususiyatlari, jahon xo’jaligida tutgan o’rni, sanoati, qishloq xo’jaligi va transporti, hududining rivojlanishi va tafovvtlari to‘g‘risida bilim berish.
O‘quv jarayonini amalga oshirish	Metod: “BBB”, “CHarxpalak” usullari va yopiq test Shakl: Ma’ruza, kichik guruhlarda ishlash Vosita: Videoprojektor, iqtisodiy xarita, 9-sinf atlas-kontur kartasi, tarqatma materiallar Usul: Tushuntirish, tayyor chizma materiallar, kartalar Nazorat: kuzatish, savol-javoblar Baholash: rag‘batlantirish, o‘zini va guruhni baholash
Kutiladigan natijalar	O‘qituvchi: O‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishadi, o‘quvchilar faolligini oshiradi, darsga qiziqishni orttiradi, tizimli ishlashga o‘rgatadi. Mustaqil ishlash, ularni xotirada saqlash, savol va javob berishga o‘rgatadi. O‘quvchi: Yakka va jamoa bilan fikrlash, xotirlash, o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga tushurish, fikrlarni umumlashtirish, yozma va rasm ko‘rinishidagi ishlarni ifodalay olishni o‘rgatadi.

Kelgusi rejalar	O'qituvchi: Ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'zlashtirish va darslarga tadbiq etish, takomillashtirish, o'z ustida ishlash, jamoadoshlariga o'rgatish, pedagogik mahoratini oshirish. O'quvchi: xarita va kontur karta bilan ishlashni o'rganish, o'z va guruh fikrini tahlil qilish, bir yechimga kelish malakasini oshirish, o'z yutuqlarini takomillashtirish, kamchiliklarni bartaraf etish, fikrlarni umumlashtirishni o'rganish.
------------------------	--

Mazkur darsning didaktik maqsadi:

1. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish orqali tahsil olishga va fanga qiziqishlarini orttirish, bilimlarini kengaytirish.
2. O'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini odatiy, tanish va kutilmagan yangi vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni egallashga erishish.
3. O'quvchilarning bilimidagi mavhum tushunchalarni aniqlash va ularga barham berish, bilim olishga bo'lgan intilishni rivojlantirish.
4. O'quvchilarning nutqini o'stirish, o'z fikrini lo'nda va mantiqan to'g'ri bayon etish, ularni dalillash ko'nikmalarini hosil qilish.

Mazkur mavzu matni tugallangan fikrli quyidagi qismlarga ajratiladi:

1. XXRning ixtisoslashgan tarmoqlari;
2. Iqtisodiy rayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi;
3. Yuzaga kelgan hududiy tafovutlar.

Darsning tashkiliy qismi amalga oshirilgandan so'ng ta'lim oluvchilarga "BBB" jadvali tarqatiladi:

B.B.B. texnikasi

№	Mavzu savoli	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim
1	2	3	4	5
1	XXR xo'jaligi xususiyatlari			
2	XXR aholisi bandligining tarmoq tarkibi			
3	XXRning asosiy moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari			
4	XXR nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari			
5	XXRning asosiy sanoat markazlari			
6	XXRning og'ir sanoat tarmoqlari			
7	XXR dehqonchilik tarmoqlari			
8	XXR transport tarmoqlari			
9	XXRning asosiy iqtisodiy hamkorlari			
10	XXR iqtisodiy rayonlari			

“CHarxpalak” usulini amalga oshirish uchun tarqatma materiallar va vazifalar:

1-Topshiriq: XXR iqtisodiy kartasidan foydalanib, quyidagilarni aniqlang:

A) Xitoyning sanoat rayonlari;

B) Xitoyning qishloq xo'jalik rayonlari.

2-Topshiriq: XXR iqtisodiy kartasidan foydalanib, bir-biriga mos tushunchalarni aniqlang:

1) Makao 2) SHanxay, Xarbin 3) Uxanь, Baotou 4) Loyan, CHanchunь

A) millioner shahar V) qora metallurgiya markazlari

S) Portugaliyaning sobiq koloniyasi G) mashinasozlik markazlari

3-Topshiriq: XXRning iqtisodiy rayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

8-jadval

№	Iqtisodiy rayonlar	Tabiiy resurslari	Iqtisoslashgan tarmoqlari	Asosiy sanoat markazlari
1	SHimoli SHarqiy			
2	SHimoliy			
3	SHarqiy			
4	Markazi Janubiy			
5	SHimoli G'arbiy			
6	Janubi G'arbiy			

4-Topshiriq: To'g'ri ma'lumotni aniqlang va izohlang.

1) Xitoy jahon davlatlari orasida iqtisodiyotning ko'pgina tarmoqlari bo'yicha yetakchi bo'lib hisoblanadi.

2) Xitoyda faqat tog'-kon va yengil sanoat rivojlangan.

3) Xitoyda yuqori su'ratli iqtisodiy sakrash kuzatilgan.

4) Xitoy iqtisodiyoti agrar-xom ashyo yo'nalishiga ega.

5) Xitoy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda katta yutuqlarga erishganiga qaramay, aholi jon boshiga nisbatan taqsimlanuvchi ko'rsatkichlar bo'yicha jahonning ko'pgina rivojlangan davlatlariga nisbatan orqada. [3]

5-Topshiriq: Yozuvsiz kartada XXRning davlat chegarasi, poytaxti va asosiy sanoat markazlarini belgilang.

V. O'quvchilar bilimini test savollari yordamida nazorat qilish va baholash.

1. XXR ma'muriy jihatdan .. provintsiya, ..ta avtonom rayon, ..ta markazga bo'ysinuvchi shahar va ..ta maxsus ma'muriy rayonga ajratiladi.
2. Xitoyda mashinasozlikning.....tarmoqlari rivojlangan.
3. Xitoy sanoatida sanoati an'anaviy tarmoq hisoblanadi.
4. XXR qishloq xo'jaligida tarmoq ustun hisoblanadi.
5. Xitoy chorvachilikning.....tarmog'i bo'yicha jahonda yetakchilik qiladi.
6. XXRningdaryosida daryo transporti rivojlangan.

VI. Yangi mavzuni qayta ishlash va yakunlash.

VII. Natijalarni tahlil qilish va baholash.

O'quvchilar bajargan topshiriqlari bo'yicha bir-birlari bajargan ishlarini tekshirish natijasida baholaganlaridan so'ng, o'qituvchi baholarini umumlashtirib, o'quvchilar bilan birgalikda qo'yilgan baholarni tahlil qiladi. Har bir o'quvchi egallagan bilimi va ko'nikmalariga tegishli baho olgach, ularning nimalarni qayta ko'rib chiqishlari uqtiriladi.

VIII. Uyga vazifa: Yozuvsiz xaritada XXR iqtisodiy kartasini ishlang va mavzuga oid krossvord tuzing.

O'z o'rtog'ining fikrini sabot va chidam bilan tinglash, bilimini nazorat qilish va uni baholash ko'nikmalari hosil qilinadi, o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlik va yordam vujudga keladi.

Yuqorida ko'rsatilgan dars ishlanmasi pedagogik amaliyot davrida "**XXR xo'jaligi. Transporti, iqtisodiy rayonlari va ularning tafovutlari**" mavzusini o'qitishda foydalanildi hamda ijobiy natijalarga erishildi.

XULOSA

“Xitoy iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini tayyorlash jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Xitoy Sharqiy Osiyoda joylashgan jahon mamlakatlari orasida maydoni kattaligiga ko'ra uchinchi, aholi soniga ko'ra birinchi o'rinda turuvchi rivojlanayotgan davlatlar orasida “tayanch mamlakat” sifatida e'tirof etilgan davlat.

2. Xitoy iqtisodiyoti rivojlanishi uning hududida mavjud bo'lgan boy mineral resurslar, katta salmoqqa ega bo'lgan yer, ikki daryo tsivilizatsiyalaridan biri shakllanishiga asos bo'lgan sersuv Yantszi, Xunxe kabi daryolaridan tashkil topgan suv resurslari bilan bog'liq. Bundan tashqari, mamlakat mehnat resurslari va milliy birdamlik xissining shakllanganligi ham uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan.

3. XXR iqtisodiyot tarmoqlari asosan o'z milliy resurs bazasiga tayangan holda mahsulot ishlab chiqaradi. Hozirgi kunda uning og'ir sanoatida qora metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoatlarining ahamiyati ortib bormoqda. Qishloq xo'jaligida dehqonchilik bilan bir qatorda chorvachilik tarmoqlari ham rivojlanmoqda.

4. Barcha davlatlarda bo'lgani kabi Xitoy iqtisodiyotining hududiy rivojlanishida ham tafovutlar mavjud. Iqtisodiy geografik o'rni qulay bo'lgan sharqiy tinch okeanbo'yi hududi eng iqtisodiy rivojlangan mintaqasi hisoblanadi. Bunga ushbu mintaqaga xos bo'lgan tabiiy sharoit, transport geografik o'rin imkoniyatlari va aholi tomonidan bu yerning qadimdan o'zlashtirilganligi ham sabab bo'lgan.

5. Bitiruv malakaviy ish mavzusi mazmunini o'zida mujassallashtiruvchi mavzu maktab 9-sinf “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” darsligidagi “Xitoy Xalq Respublikasi xo'jaligi. Transporti, iqtisodiy rayonlari va ularning tafovutlari” hisoblanadi. Uni o'qitishda “BBB”, “CHarxpalak” usullari katta amaliy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009.
2. Karimov I. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010.
3. Гладкий Ю.Н., Николина В.В. География. Учебник для 10-11 классов. – М.: Просвещение, 2008.
4. Голубчик М.М. Политическая география мира: Учебное пособие для вузов. – Смоленск: СГУ, 1998.
5. Ziyomammedov B. Ta'lim texnologiyalari. – T., 2012.
6. Ишмухамедов Р, Абдукодиров А, Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. – Т, 2008.
7. Липец Ю.Г., Пуляркин В.А, Шлихтер С.Б. География мирового хозяйства. – М.: Гуманит. Изд. центр Владос, 1999.
8. Максаковский В.П. Географическая картина мира. Книга II. Региональная характеристика мира. – М.: Дрофа, 2004. – 490 с.
9. Максаковский В.П. Общая экономическая и социальная география. Курс лекций. Часть I. – М.: Владос, 2009.
10. Родионова И.А. Экономическая и социальная география мира. – М.: Юрайт, 2012.
11. Социально-экономическая география зарубежного мира. – М.: Дрофа, 2001.
12. Qayumov A, Safarov I, Tillaboeva M. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. 9-sinf uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2010.
13. Экономическая, социальная и политическая география: мир, регионы, страны. – М.: Экон – Информ, 2008.
14. 9-синф учун атлас. – Т.: Ўқитувчи, 2013.
15. www.prb.org
16. [www. geographyabout.com](http://www.geographyabout.com)

Bitiruv malakaviy ish mavzusiga oid inglizcha – o'zbekcha atamalar lug'ati

Inglizcha	O'zbekcha
Ambient	O'rab turgan
Accession	O'shish
Ancient	Qadimiy
Administrative	Ma'muriy
Agrarian	Agrar
Agriculture	Qishloq xo'jaligi
Anniversary	Yillik
Annual	Yillik
Area	Maydon
Ascendant	Ta'sir ko'rsatmoq
Atmospherical temperature	Havo harorati
Aviculture	Parrandachilik
Along shore	Qirg'oqbo'yi
Aluminium	Alyuminiy
Atomic energy	Atom energiyasi
Grain	Don
Birth-rate	Tug'ilish darajasi
Business	Bandlik
Carboniferous	Toshko'mirli
Carton	Carton
Coal	Ko'mir
Coast	Qirg'oqbo'yi
Coke	Koks
Centre	Markaz
Channel	Kanal
Chart	Karta
Climate	Iqlim
Condition	Sharoit
Cotton	Paxta
Company	Kompaniya
Damp	Namlik
Density	Zichlik
Development	Rivojlanish
Disposal	Joylashuv
Economic	Iqtisodiy
Economics	Iqtisodiyot
Enterprise	Korxona
Export	Eksport
Fabrication	Ishlab chiqarish

Factor	Omil
Fecund	Unumdor
Fertile	Serxosil
Forest, wood	O'rmon
Tree	Yog'och
Fruetgrowing	Mevachilik
Field crops	Dala ekinlari
Garden-tillage	Bog'dorchilik
Historical	Tarixiy
Natural gas	Tabiiy gaz
Grain	Don
Geographical	Geografik
Plant	Zavod
Population	Aholi
Relief	Relief
Anniversary	Yillik
Resource	Resurs
Oil	Neft'
Ocean	Ocean
Copper	Mis
Connections	Aloqalar
Partnership	Hamkorlik
Power engineering	Energetika
Production	Xo'jalik
Organization	Tashkilot
Tourism	Turizm
World	Dunyo
Country	Mamlakat
Gold	Oltin
Sity	Shahar
Desert	Dasht
Steel	Po'lat
River	Daryo
Mountain	Tog'
Suight	Balandlik
Lend	Qo'rg'oshin
District	Rayon
Border	Hudud
North	Shimol
South	Janub
west	G'arb
east	Sharq
Government	Hokimiyat

Forward	Daromad
Money	Pul
Product	Mahsulot
Industry	Sanoat
Stable	Barqaror
Potassium	Kaliy
Railway	Temir yol
Spirits	Rux
Expenditure	Xarajat
Manufactory	Gazlama
Urbanization	Urbanizatsiya
Price	Narx
Relatively	Nisbiy
Running water	Oqar suv
Field	Poliz
Ore	Ruda
Education	Ta'lim
Technology	Texnologiya

Nizomiy nomidagi TDPU Tabiiyot fanlar fakulteti «Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari» yo'nalishi 401-gurux talabasi Kuralbekov Baxtiyar Abdukadirovichning «Xitoy iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlari» mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

ANNOTATSIYA

Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyoti rivojlanish bosqichlari, uning asosiy tarmoqlari, geografik joylashuv xususiyatlari o'rganib chiqilgan. Iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishida tabiiy va mehnat resurslarining ahamiyati tahlil qilingan. Bitiruv malakaviy ish mavzusi asosida 9-sinf "Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" fani "Xitoy Xalq Respublikasi xo'jaligi. Transporti, iqtisodiy rayonlari va ularning tafovvtlari" mavzusi bo'yicha dars ishlanmasi tayyorlangan.

АННОТАЦИЯ

По выпускной квалификационной работе на тему «Особенности развития экономики Китая» студента 4-курса Ташкентского Государственного Педагогического Университета им. Низами, факультета «Естественных наук», по направлению «География и основы экономических знаний» Куралбекова Бахтияра Абдукадиновича.

Изучены периоды развития экономики Китайской Народной Республики, её основные отрасли, особенности его географического размещение. Проанализирована значение природных и трудовых ресурсов в развитие отраслей экономики. Дана разработка на тему «Экономика Китайской Народной Республики. Транспорт, экономические районы и их территориальные различие» по теме выпускного квалификационного работы для 9-класса учебного курса «Экономическая и социальная география мира».

ABSTRACT

According to the final qualifying work on "Features of China's economy" 4- course student of the Tashkent State Pedagogical University name of Nizami , faculty "Natural Sciences", in "Geography and economic foundations of knowledge" Kuralbekov Bakhtiar .

Studied periods of economic development of the China People's Republic, its main industry, especially its geographical placement . Analyzed the importance of natural and human resources in the development of economic sectors. Dana Development on " Economics of China. Transportation , economic regions and their territorilnye difference "on the topic of the final qualifying for the 9- class training course" Economic and social geography of the world".